

Mutasaddilardan javob keldi

Muammoni aytgan aybdormi?

Yoxud 4 oyga kechikkan javob

Muammolarni ko'tarishdan maqsad ularga yechim topish, mutasaddilar o'z tasarrufidagi obyektlarga javobgarlik hissini teranroq anglashi va o'z ishiga mas'uliyat bilan yondashishiga turtki berishdan iborat.

3-bet

Insoniyat va yadro energiyasi

Yadro energetikasi energiyaning ikki turi — elektr va issiqlik energiyasini ishlab chiqaruvchi sohadir. Odatda yadro energiyasini olish uchun uranning 235-izotopi yoki plutoniyning 239-izotopi bo'linishidagi zanjir reaksiyadan foydalaniladi. Yadro bo'linishi uchun u neytron (elektr zaryadiga ega bo'lmagan og'ir elementar zarra) bilan to'qnashishi zarur va buning natijasida nisbatan yengil yadro parchalari hamda yangi neytronlar hosil bo'ladi.

7-bet

Boburshunoslik ilmidagi chin va yolg'onlar



11-bet

Kuch — bilim va tafakkurda

Marifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2020-yil 12-fevral, chorshanba № 7 (9280)

Xalq ziyolilari gazetasi

14-fevral — Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludi kuni

“Fole”yi baland “Boburnoma”ning “parol”i

So'zlar ham tirik organizmga o'xshaydi: tug'iladi, turli sarguzashtlarni boshidan kechiradi, ba'zan vaqt o'tgan sari tanib bo'lmaz darajada o'zgaradi, bir tildan ikkinchisiga ko'chadi, o'ladi, xotiraga aylanadi va hokazo. Ba'zan bir so'z bosib o'tgan yo'lda butun insoniyat tarixini kuzatish mumkin. Quyida buyuk bobomiz Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarida qo'llanilgan ikki so'z haqida biroz mulohaza yuritmoqchimiz.

“Boburnoma”da “parol” so'zining muqobili bor

“Parol” so'zi elektron pochta paydo bo'lgandan keyin, ayniqsa, ommalashib ketdi. “O'zbek tilining izohli lug'ati”da unga bunday izoh berilgan: “PAROL — harbiy xizmatda yoki yashirin tashkilotlarda o'z kishilarini tanish uchun uchrashganda aytiladigan va oldindan belgilab qo'yiladigan shartli maxfiy so'z”. Ammo hozirgi fransuz tilida “parol” so'zi mazkur ma'nolarda qo'llanilmaydi. To'g'ri, “parol”ning bosh ma'nosi “so'z”, ammo biz tushungan “so'z” ma'nosida fransuz tilida “mot” kalimasi ishlatiladi. Agar fransuzga “elektron pochtagizning parolini yozing”, desangiz tushunmaydi. Bu ma'noda fransuz tilida inglizcha “password” kabi “mot de passe” (“o'tish so'zi”) qo'llaniladi (hozirgi fransuz tilida “parole” so'zi: (biror marosimda) so'z olish, so'zga chiqish (prendre la parole); va'da, so'z berish; qo'shiq matni kabi ma'nolarda ishlatiladi).

Fransuzchani endi o'rgana boshlaganimda “parole” fransuzcha “parler” (“so'zlamok”) fe'lidan yasalgan, deb o'ylardim. Ular bir o'zakdan bo'lishi mumkin, ammo fransuz tilining izohli lug'atlari “Le Petit Robert” va “Larousse”ni varaqlab, bu so'zning ildizi lotin tilida



qo'llanilgan “parabola” so'ziga taqalishini bildim. Lotin tilida “parabola” dastlab Injildagi diniy, majoziy (allegorik) hikoyalarga nisbatan ishlatilgan.

Ammo bu diniy atamani oddiy xalq o'z tiliga moslab “paraula” shaklida talaffuz etgan, keyinchalik “paraula” “so'z” ma'nosida italvan tiliga “parola”, fransuz tiliga “parole” shakllarida ko'chgan.

Ammo “para-” — “yonida”, “yonma-yon”, “tashqarisida” kabi ma'nolarni bildiruvchi old qo'shimcha ish-tirokida yasalgan so'zlar lotin tiliga yunonchadan o'tgan (misol uchun:

“parallel”, “parapsixologiya”). “Parabola”ning yunon tilidagi shakli “paravoli” (“παράβολή”) bo'lib, lug'aviy ma'nosi ikki narsani o'zaro “qiyoslash”, “solishtirish”dir. Shuningdek, bu atama “majoziy (allegorik) hikoya”, “masal” ma'nolarida muqaddas kitoblardagi hikoyalarga nisbatan ham ishlatilgan.

Ammo “majoziy hikoya” ma'nosi “paravoli”ning o'zak ma'nosidan anglashilmaydi, demak bu ma'no atama keyinchalik boshqa tildan yuklangan.

8-9-betlar

Biologiyadan testlar

Odam anatomiyasi fani bo'yicha DTM—2019da berilgan ayrim masalalarni yechish bo'yicha tavsiyalar

12-13-betlar

O'qituvchi nimani o'ylaydi?



Darsga borishga tayyorlanib tursam, kotiba qiz qong'iroq qilib, opa, bugun toifa bo'yicha attestatsiyaga pul to'lashning oxirgi kuni, tezda bankka borib to'lab keling, deb qoldi. Hali oylik tushmagan, qolaversa, o'quvchilarim kutaypti. Nega oxirgi daqiqalarda aytishadi, hayronman. Oldinroq bilsak, bo'sh vaqt topib to'lab kelamiz-ku. Bir amallab pul topib, bankka bordim. Hamma ustozlar shu yerda ekan. Navbat kutib to'lab bo'lgunimcha darsga ham kech qoldim, rahbarlardan gap ham eshitdim.

Havoxon HAMROQULOVA

Ko'pincha o'quvchilardan “Tong yulduzi”, “Gulxan”, “G'uncha” kabi nashrlarni o'qiyiszlarmi, deb so'rasam, yo'q degan javob olaman. Aslida o'quvchilarning gazeta va jurnallardan uzoqlashishiga kim yoki nima sabab? Har safar “Tong yulduzi”ning yangi sonini nabiralarni bilan o'qiyman-u, o'ylab qolaman. Nega gazetaning adadi bu qadar kamayib ketdi? Majburan hech qanday maqsadga erishib bo'lmaydi. Ustozlar, gazetani qo'lingizga olib, bolajonlarga shunday nashrlar bor deng, majlislarda ota-onalarga targ'ibot qiling. Ana shunda gazeton, ma'naviy yetuk avlodni tarbiyalagan bo'larsiz. Ustama yodiga tushganda gazetani eslaydigan o'qituvchilarning xayoliga ham kelmaydi bu ishlar!

Mahmuda VALIYEVA

Vazirimiz bir nutqida bolalarni pul topishga o'rgatish kerakligini ta'kidlagan edi. Menimcha, bola o'z vaqtida bolalik gashini surishi, bilim egallashi, odobni o'rganishi kerak. Amerikada 25 million dollar ishlab topgan 9 yoshli bolani o'ta aqlli yoki odobli deb bo'lmaydi. Qolaversa, u kelajakda AQSh davlatiga xizmat qilishiga ham kafolat yo'q. Masalan, men oddiy oilada katta bo'ldim. Ota-onam hech qachon bizning oldimizda ro'zg'or tashvishlarini muhokama qilmadi. Odam pulning ketidan quvsa, o'zligini unutadi. Agar chin inson bo'lib voyaga yetsa, pul uning ortidan quvadi.

D.AHMADJONOV

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH HAMDA JAMOATCHILIK NAZORATI TIZIMLARI TAKOMILLASHTIRILADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 11-fevral kuni korrupsiyaga qarshi kurashish hamda jamoatchilik nazorati tizimlarini takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi.

Korrupsiya iqtisodiyot rivojini, chinakam qulay tadbirkorlik va investitsiya muhiti uchun eng asosiy to'siqlardan biridir. Tahlillarga ko'ra, bu illat jahon iqtisodiyotiga har yili o'rtacha 2,6 trillion dollar zarar keltiradi.

Mamlakatimiz ham ushbu muammodan xalos bo'lmagan. Dunyodagi korrupsiya darajasini o'rganuvchi "Transparency International" xalqaro tashkiloti indeksida O'zbekiston so'nggi uch yilda 12 pog'onaga ko'tarilgan bo'lsa-da, hali bu illat barham topmagan.

Yurtdoshlarimizning fikricha, sog'liqni saqlash, ta'lim, bank, bojxona, sud, prokuratura, ichki ishlar, kommunal xizmat sohalarda, shuningdek, fuqarolarni ishga qabul qilishda korrupsiya keng tarqalgan. Misol uchun, tahlillarga ko'ra, sog'liqni saqlash tizimidagi xarajatlarning 25–30 foizi samarasiz sarflanmoqda. Ko'plab sohalarda davlat xaridlarini amalga oshirish tizimi ochiq-oshkora emas.

Davlatimiz rahbari yaqinda Oliy Majlisga Murojaatnomasida korrupsiyaning oqibatlarini bilan kurashishdan ko'ra, bar-

vaqt oldini olishga o'tish zarurligini ta'kidlab, unga qarshi kurashishga mas'ul bo'ladigan alohida organ tuzishni taklif qilgan edi. Yig'ilishda ushbu yangi tuzilmani tashkil etish masalalari muhokama qilindi.

Korrupsiya darajasi yuqori bo'lgan sohalarda bu illatdan qutulish bo'yicha dastur ishlab chiqib, ijrosini tashkil etish yuzasidan ko'rsatmalar berildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishning eng asosiy yo'li davlat organlari faoliyati va ish jarayonlarini shaffof qilishdir. Bunda eng asosiy e'tiborni ishga olish, davlat xaridlari, ruxsatnoma va litsenziyalar berish kabi jarayonlarda ochiq-oshkoralikni ta'minlashga qaratish lozimligi belgilandi.

Adliya vazirligi va Bosh prokuraturaga Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot dasturi bilan hamkorlikda vazirlik, kompaniya va hokimliklarda ichki korrupsiyaga qarshi choralarni ishlab chiquvchi va amalga oshiruvchi "komplayens nazorat" tizimini joriy etish vazifasi qo'yildi.

Xorijiy ekspertlarni jalb qilgan holda, davlat xizmatchilari

mol-mulki va daromadlarini deklaratsiya qilish tizimining barcha tashkiliy-huquqiy asoslarini ishlab chiqib, amaliyotga kiritish shartligi ta'kidlandi.

Mutasaddilarga xorijiy tajriba asosida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tuzilmani tashkil etishga doir hujjatlarni ishlab chiqish yuzasidan topshiriqlar berildi. Mazkur tuzilma nafaqat bu borada davlat siyosatini amalga oshirishi va muvofiqlashtirishi, balki korrupsiyaga qarshi kurashishda barcha kuch va vositalarga ega bo'lishi kerakligi qayd etildi.

Ushbu illatga qarshi kurashishdagi muhim vositalardan yana biri — jamoatchilik nazorati. Bugungi kunda yurtimizda 10 mingdan ziyod nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyat yuritmoqda. Lekin ularning o'rni va faolligi sezilmayapti. Chunki bu tashkilotlar manfaatlarini ifoda etuvchi, davlat bilan ko'priq vazifasini bajaruvchi yaxlit tizim yo'q.

Hozirda jamoatchilik bilan ishlash tizimi joylarda va sohalarda xalqimizni qiynayotgan masalalarni davlat miqyosiga

olib chiqib, hal qilishda natija ko'rsata olmayapti. Ko'p nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyati rasmiyatchilikdan iborat bo'lib qolmoqda.

"Mahalla", "Nuroni" jamg'armalari va Xotin-qizlar qo'mitasi kabi yirik tuzilmalardan xalqimiz qanday naf ko'ryapti, ular hayotimizdagi qaysi o'tkir masalani ko'tarib, hal qilishga erishdi, degan savolga, afsuski, ijobiy javob yo'q.

Shu bois Prezidentimiz Oliy Majlisga Murojaatnomasida jamoatchilik nazoratini yanada kuchaytirish, davlat va jamiyat o'rtasida o'zaro yaqin hamkorlik o'rnatish maqsadida Jamoatchilik palatasi tashkil etish taklifini ham bildirgan edi. Yig'ilishda ushbu palataning asosiy vazifalari, tashkiliy jihatlari muhokama qilindi.

Jamoatchilik palatasi aholi fikrini muntazam ravishda o'rganib borishi, muammolar yechimini topish bo'yicha davlat idoralari oldiga aniq vazifalar qo'yishi zarurligi ta'kidlandi. "Jamoatchilik eshituvi", "Jamoatchilik monitoringi", "Jamoatchilik ekspertizasi", "Jamoatchilik tashabbusi" kabi ta'sirchan nazorat shakllarini

hayotga tatbiq etish muhimligi qayd etildi.

Nodavlat notijorat tashkilotlari hamda davlat idoralari huzuridagi jamoatchilik kengashlari faoliyatini jonlantirish, ularga har tomonlama uslubiy ko'mak berish ham yangi palata faoliyatining muhim yo'nalishlaridan bo'ladi. Shu kabi vazifalardan kelib chiqib, Jamoatchilik palatasining tashkiliy-huquqiy asosini yaratish, shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish bo'yicha 2020–2021-yillarda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Oliy Majlis huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi faoliyatini takomillashtirish, jamiyat hayotiga oid muammolarni o'rganish va samarali hal etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish uchun nodavlat notijorat tashkilotlariga grantlar ajratish masalasiga ham to'xtalib o'tildi.

Muhokama qilingan masalalar yuzasidan tegishli chora-tadbirlar belgilab olindi.

O'ZA

Ijtimoiy tarmoqlarda nima gap?

Kecha kechqurun kechroq uxladim, tarix zarvaraqlariga ismim yozilishi uchun mehnat qildim. Ertalab uxlab qolib, darsga kechikib, universitet darvozasini oldidagi qorovulning daftariga ismim yozildi. O'sish bor!

Abbos SEROBOV

Televizordagi O'zbekiston-da yashagim kelyapti.

Farhod UMRZOQOV

14-fevral — Boburning tavallud kuniga bag'ishlab tadbir uyushtirayotgan kafe, bar, restoranlar negadir Alisher Navoiy tavallud kunini nishonlamayapti.

Hamid OG'AY

Iste'dodli sozanda emish! Sozandalikning o'zi iste'dodni bildiradi-ku! Yana "uddaburon o'g'ri" deydi bittasi. Axir o'g'irlikning o'zi uddaburonlik-ku! Ishonmasangiz, quruvchilardan

Iqtiboslar


oshnangiz bo'lsa... yaxshilab tushuntiradi.

Maqsud JONIXONOV

Monopoliyaga birgalikda zarba beraylik! Bir bo'lib chiqargan mahsulotiga boykot qilsak, o'ziga kelib qoladi. Misol uchun, banan yon qo'shnilarimizda arzon, bizda esa qimmat. Banan bozorini egallagan monopol o'zi xohlagan narxda sotadi. Koronavirus haqidagi mish-mishlar sabab odamlar banan olmay qo'yishgan edi, narxi tushdi. Shu uslubni qolgan monopolchilarga qo'llasak, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Sherzod QOSIMOV

Atrofdagilarga yuqoridan qaragani uchun jirafani



kechirsa bo'ladi, hokimlarni emas.

Qiziq, amaldorlar ham virusga qarshi niqob taqarmikan, dedim o'zimga o'zim. Menimcha, yo'q. Niqob ustiga niqob taqib bo'lmasa kerak.

Chopra SOHIB

Agar O'zbekistonda biror narsaning narxi tushganini eslay olmasang, virus vahimasi vaqtidagi bananlar savdosini xotirla.

Ulug'bek ORIPOV

Qonunchilik bazasi yaratilgan davlatda mansabdorlar

rahbar oldida bloknot ushlab turibdimi, demak, qonunchilik ishlaymayapti.

Hamid SODIQ

Bu jamiyatga jiddiy mavzular qiziqmas. Qayoqdagi "prikol"larga qiziqadi ko'plar. Chunki shuginaga miyasi yetadi, xolos. Na siyosiy, na iqtisodiy, na sog'liqni saqlash mavzusi qiziq. Yo'q, bu odamlarga "prikolcha"lar kerak, xolos.

Adham ARSLONOV

— Kunning ikkinchi yarmida hecham ishlagim kelmaydi.

— Birinchi yarmida-chi?

— Birinchi yarmida ovqat yegim va uxlagim keladi.

SKORPION

Zamonn qara! Oddiy fuqaro profilida so'kinsa, 15 sutka, davlat odami so'kinsa, xakerlar hujumi! Holatdan Amerika va Rossiya xakerlari hayron.

Zafarbek SOLIJONOV

Ijtimoiy tarmoqlarni

Suhrab ZIYODOV kuzatdi.

Mutasaddilardan javob keldi

Muammoni aytgan aybdormi?

Yoxud 4 oyga kechikkan javob

Gazetamizda ko'pdan buyon ta'lim jarayonidagi muammolar, o'qituvchilar dardi, ta'lim muassasalaridagi mavjud kamchiliklar borasida maqolalar berib borilyapti. Muammolarni ko'tarishdan maqsad ularga yechim topish, mutasaddilar o'z tasarrufidagi obyektlarga javobgarlik hissini teranroq anglashi va o'z ishiga mas'uliyat bilan yondashishiga turtki berishdan iborat. Zero, bu OAVning vazifasiga kiradi.

"Ma'rifat"ning 2019-yil 26-oktabr kuni 83-sonida Qashqadaryo viloyati Muborak tumanidagi 12-maktabgacha ta'lim tashkilotining kuz-qish mavsumiga tayyor emasligi, isitish tizimida talay muammolar mavjudligi va buning natijasida ko'p yillardan buyon qish kunlari bolalar sovuqda qiynalayotgani, bu ta'lim-tarbiya sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani tanqid ostiga olingan "Bog'cha emas, kelajak muammosi" sarlavhali maqola chop etilgan edi. Maqola chop etilganiga 4 oy bo'ldi. Mazkur maqolada ko'tarilgan muammolarga e'tibor qaratilishini so'rab tahririyatimiz 2019-yil 12-noyabr kuni Qashqadaryo viloyati hokimi Zoir Mirzayev nomiga xat bilan chiqdi. Ammo qonunchilikda belgilangan muddat ichida xatimizga

javob ololmagach, gazetamizning 2020-yil 8-yanvar kuni 2-sonida "Qonunbuzar hokimlar!" sarlavhali maqolada Qashqadaryo viloyati hokimi tomonidan xatimiz javobsiz qoldirilganligi yana tanqid ostiga olindi. "Qonunbuzar hokimlar!" maqolasidan so'ng ham tahririyatning rasmiy xatiga javob berilmadi. Ammo mazkur maqoladan so'ng "Facebook" ijtimoiy tarmog'ida bu masala muhokama qilina boshlandi. Shundan so'nggina Qashqadaryo viloyati Maktabgacha ta'lim boshqarmasi o'z munosabatini bildirdi. "Xolislikdan juda uzoq "tezkorlik" deb sarlavha qo'yilgan mazkur munosabatni o'qib, yana hayratga tushasan

Xolislikdan juda uzoq "tezkorlik"

Bugungi zamon shiddati har bir sohada namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, ommaviy axborot vositalarida bu yanada yaqqolroq sezilmoqda. Bu albatta, barchani quvontiradi. Ammo ayrim hollarda shunday "tezkorliklarga ham guvoh bo'lasizki, beixtiyor yoqa ushlaysiz..."

Keling, sizga tushunarliroq bo'lishi uchun "uzoqroq"dan boshlaymiz. So'nggi yillarda mamlakatimiz rahbarining tashabbusi bilan maktabgacha ta'lim sohasida ulkan ishlar amalga oshirildi va tizimda misli ko'rilgan darajada o'zgarishlar ro'y bermoqda.

Bu o'zgarishlar nafasi Qashqadaryo viloyatida ham sezilmoqda. Raqamlarga murojaat etadigan bo'lsa, keyingi ikki yilda viloyatda maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 326 tadan 116 taga, ya'ni 3 barobardan ko'proqqa, qamrov ham 32 059 nafardan 110 532 nafarga ortdi. Raqamlar shunchaki emas, qilingan ishlar samarasi, amalga oshirilgan ishlar ro'yobodidir. Bu yo'lda soha vakillarining mashaqqatli mehnati turibdi, albatta.

E'tirof etish kerakki, bu kabi jadal islohotlar bosma va elektron ommaviy axborot vositalarida ham aksini topmoqda. Bu quvonarli. Zero, har bir yangilik, ta'bir joiz bo'lsa har bir qadam, har bir quvonchlik xabar basma-bas aksini topayotgani bor gap. Xuddi shuningdek, joylarda loqaydlikka yo'l qo'yayotgan rahbarlar, tarbiyachilarning o'z ishiga mas'uliyatsizligi, shart-sharoitlar haqida ham tanqidiy ruhdagi chiqishlarning borligini ham inkor etmaymiz. Zero, ish bor joyda kamchilik bo'ladi. Muhimi ularni tuzatish, kelgusida bu kabi holatlarga yo'l qo'ymaslikdir. Ammo mana bu holatga qanday baho berishga hayransan kishi.

Jurnalist O'ktam Meyliyev 2019-yilning avgust oyining oxirida Muborak tumanida bo'lib, tumandagi 12-maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyati bilan tanishadi. Bu paytda tashkilotda qishgi mavsumga tayyorlik, taraddud ishlari borayotgan, tabiiyki holat ham shunga monand bo'lgan. Holatni suratga tushirgan, ma'lumotlarga ega bo'lgan O'.Meyliyevning "tezkorligi"ni qarangi, oradan 2 oydan oshiq vaqt o'tib, "Ma'rifat" gazetasi 2019-yil 26-oktabrdagi 83-sonida "Bog'cha emas, kelajak muammosi" sarlavhasi ostida huv o'sha tayyorgarlik, taraddud jarayoni aks etgan suratlar va ma'lumotlarni asos qilib



kishi. Zero, unda maktabgacha ta'lim tashkilotidagi muammolarga e'tibor qaratish o'rniga muxbirdan olgan ma'lumotlarini 2 oy o'tib maqolada bayon etgani ortidan "noxolislik" aybi axtarilgan. Buni qarangi, mutasaddilar uchun tuman hokimligining yonginasida joylashgan bolalar bog'chasidagi noqulay sharoit ikkinchi masalaga aylanib, muammoni aytgan muxbirning "aybi"ni topish birlamchi masalaga aylanib qolibdi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan munosabatni o'qib chiqing va o'zingiz mulohaza qiling, aziz gazetxon!

Norin tumanidagi 15-, 29-umumta'lim maktablari binosi ichiga joylashgan mahalla fuqarolar yig'ini idoralarining ta'lim-tarbiya jarayoniga xalal berayotgani haqidagi "Maktabdagi mahalla idorasi yoxud "tekin" tomoshalar mashmashasi" nomli tanqidiy maqola "Ma'rifat" gazetasi 2019-yil 7-avgustdagi 61-sonida chop etilgan edi. Mazkur maqola yuzasidan ham Namangan viloyat hokimi Xayrullo Bozorovga 2019-yil 9-avgustda muammoga e'tibor qaratishlarini so'rab, xat jo'natilgan edi. Mutasaddilarning javobi O'ZA saytida e'lon qilindi.

Maktab mashmashalardan qutuldi

"Norin tumani hokimligi quyidogilarni ma'lum qiladi: Tanqidiy materialda tumandagi maktablarda mahalla fuqarolar yig'inlari idoralari joylashganligi to'g'risida ma'lumot keltirilgan. Maqolada ko'rsatilgan

15- va 29-sonli umumta'lim maktablarda yoshlar o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish, "Oila-mahalla-maktab" tamoyili asosida yoshlar tarbiyasini yaxshilash maqsadida mahalla fuqarolar yig'inlari idoralari joylashtirilgan edi. 15-umumta'lim maktabida joylashgan "Shahidmozor" MFY idorasi 2019-yil 18-noyabr kuni mahalla guzari binosiga, 29-umumta'lim maktabida joylashgan "Kemaboshi" MFY idorasi alohida binoga ko'chirib chiqarilgan. Hozirda tumandagi birorta ta'lim muassasasi binosida mahalla fuqarolar yig'inlari joylashtirilganligini ma'lum qilamiz. "Ma'rifat" gazetasi tahririyatiga maktablarda ta'lim sifatiga xalaqit berishi mumkin bo'lgan omillarni yo'qotishni maqsad qilgan ushbu material uchun minnatdorchilik bildiramiz va o'zaro hamkorlik uchun doimiy ochiqlik tamoyillariga amal qilishga tayyormiz".

maqola chop etadi. Oktabr oyining ham oxirida chop etilgan bu "tezkorlik"dan maqsad nima edi?

Modomiki, kamchilik bo'lgan ekan, ishda qusur bor ekan, nega jurnalist o'sha xabar yoki maqolani o'sha paytning o'zida chop etmadi? Hechqurs, o'sha paytdagi surat va holat haqida 10 kundan so'ng ma'lumot berilganda ham birqadar xolis yondoshilgan bo'lardi. Ammo O'.Meyliyevning bu "chiqishi" omma e'tiborini o'ziga qaratish, "piar" qilishdek taassurot uyg'otadi kishida.

Inkor etmaymiz, so'zimiz avvaliga keltirilgandek, ishlar ko'lami juda keng. Bu jarayonda kamchiliklar ham kuzatilishi tabiiy. Busiz iloji yo'q. Holbuki, ommaviy axborot vositalari bilan yaqin aloqalar va hamkorlik doirasida qator holatlarga aniqlik kiritildi, e'tibor qarotildi. Biz bunday hamkorlikdan manfaatdormiz. Ammo yuqoridagi kabi xolislikdan uzoq "tezkorlik" faqat va faqat soha xodimlarining ishchanlik kayfiyatiga ta'sir o'tkazish va yutuqlarimiz yuziga qora chaplashdan boshqasi emas.

Qashqadaryo viloyat maktabgacha ta'lim boshqarmasi axborot xizmati

Tahririyat: O'.Meyliyev maqolasida "Bog'chadagi shart-sharoitlarni ko'zdan kechira turib, shunga amin bo'ldikki, MTTdagi isitish tizimi uzoq yillardan buyon ishlamas ekan" deyilgan edi. Darvoqe, uzoq yillar mobaynida ishlamasligini jurnalist muassasa xodimlari bilan gaplashib, surishtiruvlar o'tkazib, so'ng qalamga olgan. Buni maqolani o'qigan kishi darrov anglaydi. Ammo bu muammoni maqola chiqqanidan so'ng bartaraf etib, so'ng jurnalistni noxolislikda, nohaqlikda ayblashdan nima naf? Ming afsuski, bunday ko'zbo'yamachiliklari ortida yana nechalab ta'lim muassasalari muammolar qurshovidan chiqib keta olmayapti. Munosabatda qalamga olingan islohotlar-u raqamlarga hech qanday e'tirozimiz yo'q, bu o'zgarishlarni hammamiz ham ilg'ab turibmiz, ammo mavjud kamchiliklarni xaspo'shlamasak yanayam ko'proq narsaga erishgan, talay muammolarga yechim topgan bo'lar edik.

Darvoqe, viloyat hokimligi rasmiy murojaatimizga hamon rasmiy javob bergani yo'q.

O'qituvchi minbari

Qobiliyatini sezdingizmi, ixtisoslashtiring!

Umumiy o'rta ta'lim maktabida chorak asrdan buyon boshlang'ich sinflarga dars berib kelaman. Kezi kelganda maktabgacha ta'lim muassasalari va maktablarning boshlang'ich sinflaridayoq bolada kasb-korlarga havas uyg'otish, tasavvur va ko'nikma hosil qilishga erishish zaruriyatiga to'xtalmoqchiman. Endilikda aksariyat bolalar maktabga boshlang'ich tayyorgarlik ko'rib kelyapti. Ular orasida maktabgacha tarbiya maskanlarida chet tilni anchagina o'zlashtirganlari ham uchraydi. Bunday o'quvchilarni 1-sinfga tabaqalashtirmagan holda jalb etishdan naf yo'q, balki ularga alohida chuqurlashtirib ta'lim bergan afzal.

Maktabimizda bu sohada o'tgan yillar mobaynida yaxshigina tajriba to'plandi. Ilmning u yoki bu qirasi uyg'yicha o'z iqtidorini yoshligidanoq namoyon etayotgan o'quvchilarning bilim olish jarayoni yuqori malaka va ko'p yillik tajribaga ega bo'lgan ustoz-muallimlar tomonidan alohida nazorat qilinib, yo'naltirib boriladi.

Namunali axloq-odobi bilan alohida ajralib turuvchi o'quvchilarni past baholarga o'qiyotgan, tarbiyasi og'ir bolalarga o'rnatilib ko'rsatishga qaratilgan tadbirlarning ham o'rni beqiyos. O'quvchilarni bilim va iqtidori darajasiga ko'ra alohida tarbiyalash, bu jarayonda o'zini ko'rsatib, bilim va intizomlilar safiga qo'shilgan bolalarni esa namunali hisoblangan sinflarga o'tkazish xususida ham o'yab ko'rish kerak.

Zukko muallim bolaning iqtidorini alifbo sabog'ining ilk haftalaridayoq anglab oladi. Shunga

ko'ra, saboqning dastlabki bosqichidan o'quvchi ixtisoslashtirib borilsa, iste'dod yuzaga qalqib chiqadi.

Ba'zan maktabni tugatsa-da, bo'lg'usi hayot yo'lini tanlay olmagan yoshlarni uchratamiz. O'zidagi qiziqish-u iqtidorni anglab yemagan, yuzaga chiqarolmagan o'quvchi noto'g'ri yo'nalishni tanlab, intilaveradi va har safar muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Bunga qaysidir ma'noda ota-ona, o'qituvchilar aybdor.

Jamiyatning muhtasham qasrini har tomonlama chiniquq, bilimli, malakali yosh kadrlar barpo etishadi. Ushbu go'zal "imorat"ni bunyod etuvchilarni tarbiyalashni maktab yoki o'quv yurtidan emas, balki oila, bolalar bog'chalaridanoq boshlamoq zarur.

Dilrabo SOBIROVA,
Urganch shahridagi
11-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Tarbiya biz uchun...

Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi asosida uzoq yillar davomida ta'lim tizimida o'qitilib kelayotgan "Odobnoma", "Vatan tuyg'usi", "Milliy istiqlol g'oyasi", "Ma'naviyat asoslari", "Dunyo dinlari tarixi" fanlari birlashtirilgan holda "Tarbiya" fanining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Xususan, bu fandan darsliklar va o'quv-metodik majmualarni yaratish, DTS ishlab chiqish bo'yicha ishchi guruhlar allaqachon o'z faoliyatini boshlagan.

Yigirma yilga yaqin vaqt mobaynida aynan yuqoridagi fanlardan dars bergan o'qituvchi sifatida shu yo'nalishda ayrim takliflarim bor.

Avvalambor, "Tarbiya" fani yoshlarni tarbiyalashda baland-parvoz g'oyalardan xoli bo'lishi kerak. Bu borada badiiy adabiyotlar, milliy, diniy manbalardan unumli foydalanish zarur. Darslarda amaliy mashg'ulotlarga ko'proq e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, bu fandan dars beruvchi o'qituvchilar jamiyatda o'z o'miga ega, chuqur bilimli, yuksak fazilatli bo'lishi talab etiladi. Chunki tarbiyachining o'zi namuna bo'lishi, o'rnatish muhimdir. Yana bir muhim masala, yaratilgan mezonlarni bosqichma-bosqich tajriba-sinovdan o'tkazish va keng jamoatchilik

fikrini inobatga olish kerak. Tarbiya borasida yuzaga kelayotgan bo'shliqlarning o'rni to'ldirish va jamiyatda komil fuqarolarni tarbiyalash asosiy mezon bo'lishi lozim. Tarbiyadagi kamchiliklarni ustoz-shogirdga, tengdosh-tengdoshga tamoyillari orqali bartaraf etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Balandparvoz, juda kuchli talab qo'yiladigan mafkuralarni singdirishdan, o'quvchilarni me'dasiga tegadigan usullardan qochish kerak. Inson tabiati, ruhiyatiga mos mingyillik nodir ma'naviy merosimiz, an'analarimiz va qadriyatlarimiz uyg'unligida ta'sir ko'rsatish konsepsiyaning hayotiyli, ta'sir kuchini yanada oshiradi.

Shokir BOLTAYEV,
Boysun tumanidagi
6-maktab direktorining
o'rinbosari

Tadbirlar kerak!

Faqat uni to'g'ri tashkil qilishni bilaylik

Biz o'qituvchilar tadbirlar darsga xalaqit beradi deb, ularni kamroq o'tkazish tarafdorimiz. Lekin to'g'ri va o'z vaqtida tashkil qilingan tadbir o'quvchining bilimni boyitib, muayyan fandan olgan bilimni mustahkamlaydi.

Ko'pchilik oldida o'zini tutish, muomala madaniyati, mustaqil va tezkor fikrlash, boshqalarga ijobiy ta'sir ko'rsata olish qobiliyatlari aynan tadbirlarda rivojlanadi. Masalan, men rus tili fanidan "Вместо весело шагаем", "Я, ты, он, она...", "Мое любимое время года", "Эрудит", "Мы и сказки", "Кто первый", "Поговорим по-русски" kabi tadbirlar o'tkazdim. Ba'zilar yillik an'anaviy tadbirga aylandi.

Bu nafaqat o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishga xizmat qiladi, balki ularda jamoaviy shaxs ruhiyatini shakllantirishga katta ta'sir o'tkazadi. Ulardagi analitik, tashkilotchilik, muomala va ixtirochilik qobiliyatlarini shakllantiradi. Tadbiring har bir qismida belgilangan maqsadni amalga oshirish uchun har xil pedagogik ta'sir va o'zaro ta'sirlar qo'llaniladi. Sinfda o'tkazilayotgan tadbiring tarbiyaviy ta'sirlari natijasida pedagogik muhit paydo bo'ladi.

Tadbir tashkil qilishda sinfdagi muhit hisobga olinishi kerak, tadbirdan so'ng quyidagi savollarga javob olinishi lozim:

- O'quvchi o'zi uchun nima kashf qildi?
- O'quvchi va o'qituvchi hamkorligini kuchaytirishga xizmat qildimi?

Tadbiring har bir qismi o'quvchilarni topshirilgan ishga mas'uliyat, boshlagan ishini tugatish, o'z qilgan ishlarini baholay olishga o'rgatishi kerak. Ko'zlangan maqsadlarni o'quvchilarga to'liq tushuntira olish va amalga oshirish uchun pedagogning analitik tayyorligi, eruditsiya, tashkilotchilik, qiyin pedagogik vaziyatlardan chiqib keta olish qobiliyati namoyon bo'ladi.

O'quvchilar ishtirokida tadbir yakunini tahlil qilinishi muhim. Bu bosqich o'quvchilarni o'z ishini to'g'ri baholash, yakuniga yetkazish, ishini davomini ko'ra olish va boshqarish malakalarini shakllantiradi.

Bugungi davrda o'g'il-qizlarni tadbirlarga qiziqitirish va jalb etish uchun o'qituvchi o'ta uddaburon va zukko bo'lishi kerak. Bu mavzuda hali ko'p qiziqarli suhbatlar olib borishimiz mumkin.

Hormang, ustoz, qanday yangi tadbir rejalashtiryapsiz?

Yorqinoy MAMATISOQOVA,
Marhamat tumanidagi
6-maktabning rus tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

Sinab ko'ring

O'z-o'zini baholash metodi baholashning eng maqbul yechimi

Darsning eng muhim bosqichlaridan biri — o'quvchilarning bilimni baholash. Ushbu jarayon ko'p hollarda bahs-munozaralarga, o'quvchilarning noroziligiga sabab bo'lishi hech birmizga sir emas. Ushbu muammoning samarali yechimi sifatida o'z-o'zini baholashning bir necha usul va ko'rinishlarini darslarim davomida joriy etdim.

"Bilimlar daraxti" metodi orqali o'quvchi o'z bilimiga haqiqiy baho berishi mumkin. Bunda o'quvchilarning har biriga qurigan daraxt tasviri aks etgan rasmlar taqdim qilinadi. Dars jarayonida o'quvchilarning ishtirokiga ko'ra ularga daraxtning barglari hamda mevalari berib boriladi. O'qituvchi tomonidan ilmsiz inson — mevasiz daraxt ekanligi misollar yordamida og'zaki aytib o'tilsa, o'quvchilar faolligini oshirishga erishish mumkin. Qurigan daraxtning ekologiya va atrof-muhitga hech qanday foydasi bo'lmaganidek, ilmsiz inson ham jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'sha olmasligi ta'kidlanadi. Dars so'ngida barcha o'quvchilar o'z daraxtlarini namoyish etganlarida, kim qanday bahoga loyiqligi yaqqol namoyon bo'ladi. O'qituvchi ham baholashda adashmaydi, qolaversa, vaqtdan unumli foydalaniladi.

"Quvnoq alifbo" metodidan asosan boshlang'ich sinflarda foydalanish kutilgan natijani beradi. Bunda o'quvchilarga dars davomida ishtirok etgani uchun alifbo harflari berib boriladi. Agarda o'quvchi harfni o'zi tanlab olsa, dars jarayonidagi faollik yana ham oshishiga erishiladi. Boisi, dars so'ngida o'quvchilar yig'gan harflaridan ma'lum bir so'zni yozishlari talab etiladi. O'quvchi o'zi tanlagan so'zning barcha harflarini yig'ish uchun diqqatini oshiradi va faollikka intiladi. Nechta so'zni to'liq yoza olganliklarga ko'ra baholanadi. Bu metod orqali o'quvchilar bilimni tez, oson va adolatlil baholash bilan birga, ularning so'z boyligini oshirishga erishish mumkin.

Bundan tashqari, ushbu metoddan yuqori sinflarda foydalanilganda, ularga kelajakda o'zi egal-moqchi bo'lgan kasbining harflarini yig'ish vazifasi topshirilsa, o'quvchilarni kasbga yo'naltirishga erishiladi.

"Oltin meros" metodidan yuqori sinflarda foydalanilgan ma'qul. Baholashning bu usulida o'quvchi

larni kichik guruhlariga bo'lish tavsiya etiladi. Bunda dars davomida hikmatli so'zlar va maqollarning so'zlaridan berib boriladi. Qaysi guruh maqol qismlarini to'liq yig'isa, o'sha guruh o'quvchilari a'lo bahoga munosib bo'ladi. Guruh ishtirokchilari o'z jamoalari sharafini munosib himoya qilish uchun bor mahoratini namoyish etishga harakat qiladilar. Bu orqali ularda hamkorlikda ishlash, mas'uliyat, daxldorlik, ajdodlar merosiga hurmat kabi ko'nikmalar shakllanadi. Maqol va hikmatli so'zlar mavzuga mos tanlansa, tarbiyaviy maqsaddan ko'zlangan natija yuqori bo'ladi.

"Ranglar jilosi" metodida ham o'quvchilar guruhlariga bo'linadi. Tashkiliy qismda guruhlariga oq-qora tasvirdagi rasmlar taqdim etiladi. Rasmlar mavzuga aloqador bo'lishi kerak. Qatnashgan o'quvchilar ushbu rasmning bir bo'lagini rangli qalamlar bilan bo'yaydi. Dars so'ngiga qadar qaysi guruhning rasmi to'liq rangli tusga kirs, o'sha guruh ishtirokchilari rag'batlantiriladi. Bu orqali o'quvchilarning dars davomida faolligini oshirishga, ularning psixologik holatini ijobiy ruhda ushlab turishga, san'atni sevish, undan ilhomlanish tuyg'ularini rivojlantirishga erishish mumkin. A'lo baho olish har doim o'quvchi uchun yuksak mukofot hisoblangan. Ko'p hollarda darsga tayyor bo'lmagan o'quvchi jarayonni tushkun kayfiyatda o'tkazadi, boz ustiga dars so'ngida "2" baho bilan "taqdirlanadi". Yuqorida tavsiya etib o'tgan metodlarimiz ham aynan bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarni "jonlantirish"ning eng maqbul yechimidir. O'quvchi o'zining bilimiga o'zi haqiqiy bahoni bera olmas ekan, unda hamisha o'qituvchining bahosidan norozilik kayfiyati davom etadi.

Barchinoy KARIMOVA,
Buxoro shahridagi 39-IDUM o'qituvchisi

"O'qituvchilarimiz bilimi repetitorlarnikidan kam emas!"

Malumki, Xalq ta'limi vazirligining 2019-yil 28-dekabrda "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida variativ o'quv rejalari tajriba-sinovdan o'tkazish to'g'risida"gi buyrug'i asosida ayrim ta'lim muassasalarining 10-11-sinflarida tanlov sinflari tajriba-sinov sifatida joriy etildi. Bu orqali o'quvchilarning oliy ta'lim muassasalariga kirish ko'rsatkichlarini ko'tarish, ota-onalarni moddiy qiyinchiliklardan qutqarish, yuqori malakali o'qituvchilarning nufuzini yanada oshirish ko'zlangan. Mazkur yo'nalishda o'quv jarayonlarini boshlab ta'lim muassasalarining faoliyati bilan qiziqdik. Ular tajriba-sinov jarayonida qanday muammolarga duch kelmoqda?

— 2019/2020-o'quv yilining 3-choragidan boshlab 10-11-sinflarda variativ o'quv rejalari sinovdan o'tkazish bo'yicha maktab rahbariyati, kuzatuv kengashi va o'qituvchilardan iborat ishchi guruh tashkil etildi, — deydi Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidagi xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi direktorining o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari Dildora Abdullayeva. — Avvalo, ishini o'quvchilardan so'rovnoma olishdan boshladik. Qolaversa, ota-onalar majlisga chaqirilib, yangi tizimning maqsad-vazifalari tushuntirildi. So'rovnoma natijalariga ko'ra, 10-sinflarda o'qiyotgan 108 nafar o'quvchining 30 nafari, 11-sinflardagi 80 nafar o'quvchining 29 nafari xorijiy til va filologiya yo'nalishini tanladi. Qolgan yo'nalishlarda esa o'qishga xohish bildirganlar kamchilikni tashkil etdi. Maktabimizning xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan sabab o'quvchilarning katta qismi mana shu yo'nalishni tanladi.

Barcha tashkiliy ishlar hal qilinchilik, dars jarayonlarini boshladik. Ushbu sinflarga haftasiga ingliz tilidan 4 soat qo'shimcha (jami 8 soat), ona tilidan 3 soat qo'shimcha darslar o'tilmoqda. Qolgan o'quvchilar o'z ixtisosligi bo'yicha an'anaviy sinflarda ta'limni davom ettirmoqda. O'quv mashg'ulotlarini yanada sifatli olib borish, oliy o'quv yurtiga kirish imtihonlariga tayyorlash maqsadida bu sinflarga oliy va birinchi toifali o'qituvchilar birlashtirildi. Ularga qo'shimcha soatlari uchun maosh belgilandi.

Tanlov sinflarida dars o'tish o'qituvchilardan ikki karra mas'uliyat talab etadi. O'quvchilar, ota-onalarning ishonchini oqlash va kelgusida natijaga erishish pedagoglarning oliy maqsadiga aylandi. Yangicha kuch-g'ayrat bilan ishlayotgan ustozlardan birining fikrlariga quloq tutdik.

— Ushbu tizim o'quv yilining boshidan joriy etilganda yana ham yaxshiroq bo'lardi deb o'ylayman,

deydi 11-sinflarga birlashtirilgan ingliz tili fani o'qituvchisi Sabohat Mahmudova. — Bitiruvchi sinflar uchun biroz qiyin. Chunki imtihonga vaqt kam qoldi. Lekin imkon darajasida bo'shliqlarni to'ldirishga harakat qilyapmiz. Yana bir muammoli tomoni — biz doim til o'rganishda mashg'ulotlarni ikki guruhga bo'lingan holda olib borganmiz. Yangi tizimda dars jarayonlari bir sinfda o'tilmoqda. Ba'zida o'quvchilarning savollariga javob berishga ulgurmay qolyapman. Shu jihatdan biroz qiyinchilikka uchradim. Albatta, tizimning ijobiy tomonlari ko'p. O'quvchilar o'zi tanlagan oliy o'quv yurtiga kirish imtihonlarida zarur bo'lgan fanlar bilan ko'proq shug'ullanadi. Natijani ko'rish maqsadida o'quvchilardan har hafta yakunida test olinmoqda. Qo'shimcha soatlarda 2019-yilda kirish imtihonlarida tushgan test variantlari hamda Test Masterdan foydalanaymiz.

Maktab rahbariyati va o'qituvchilar bilan gaplasha turib, jarayon ko'ngildagidek olib borilayotganini angladik. Albatta, ushbu tizimning ijobiy natija ko'rsatishi o'quvchilarga bog'liq. Bu haqida ular nima deydi?

— Biz tabiiy fanlardan fundamental bilimga ega bo'lganmiz, — deydi 11-sinf o'quvchisi Husniddin Najimov. — Bu tizim tashkil etilgani hammamizga birdek ma'qul bo'ldi. Sinfoshlarimiz bilan bor kuch-g'ayratimizni faqat o'z yo'nalishimizda asqot-

digan fanlarga qaratayotgan edik. Endi maktabdagi o'quv jarayonlaridan qoniqyapmiz. Hattoki, shu kunga qadar borayotgan o'quv kurslarimni biroz qisqartirdim. Maktabdagi o'qituvchilarning ishonchim ortmoqda. Ularning bilim darajasi repetitorlarimizdan kam emas degan fikrga keldim.

Butun xayoli repetitorlarida, maktabga faqat davomat uchun kelib-ketib yurgan o'quvchilarning qvovchi cheksiz. Ayniqsa, 10-sinf o'quvchilarning omadi keldi. Ular endi 1 yildan ko'proq vaqt davomida faqat o'zlariga kerakli fanlarni o'qish imkoniga ega.

— 10-sinflar uchun tanlov sinflarini ochishga qaror qildik. So'rovnomadan ma'lum bo'ldi, aksariyat o'quvchilar moliya va iqtisod yo'nalishiga qiziqar-kan, — deydi Uchtepa tumanidagi 81-maktab direktori Ziyoda Haydarova. — Dars jarayonlari qizg'in olib borilmoqda. Mazkur sinfga oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlari bilan yaxshi tanish, tajribali o'qituvchilarni jalb qildik. Boshqa fan o'qituvchilarning darslari 1-2 soatga qisqardi. Noroziliklar bo'lmadi. Qvovnarlisi, boshqa o'qituvchilar o'rtasida raqobat paydo bo'ldi. Hozir bizga tanlov sinflarida darslarni yanada qiziqarli olib borish uchun texnik vositalar yetishmayapti. Elektron doska hamda ingliz tili fani uchun lingafon xonasiga ehtiyojimiz bor. Kelgusida bu muammolarni

bartaraf etish niyatidamiz. O'quvchilarning bilimini sinash maqsadida tuman, shahar miqyosida bir yo'nalishda o'qiydigan o'quvchilar o'rtasida bilimlar bellashuvi tashkil etish taklifini bermoqchiman.

— Yo'nalishli sinfga o'tgach, bolamning o'qishida o'zgarish sezdim, — deydi Surayyo Mahmudova. — Sinfoshlaridan qolib ketmaslikka harakat qilyapti. Barcha uy vazifalarini jon kuydirib bajarmoqda. Ota-onalar farzandlarining bilimidan xabardor bo'lishi uchun "Telegram" messenjerida guruh tashkil etildi. U orqali har hafta yakunida farzandlarimizning bir haftalik natijalari bilan tanishib boryapmiz. Qo'shimchaga bog'anda repetitoridan bolamning bilim darajasini so'rash imkonini yo'q edi. Uyda ham talabni kuchaytirdim. O'glim maktabda olgan bilimlari bilan oliygohga o'qishga kirishini juda xohlar edim.

Yangi tizim o'qituvchilarning ham, o'quvchilarning ham, ota-onalarning ham ko'nglini tog'dek ko'tardi. Dars jarayoniga kirganda o'quvchilarning ko'zlari yonib, yangicha shijoat, yangicha kuch bilan bilim olishga intilayotganini payqadik. Albatta, tajriba-sinov jarayonlari muvaffaqiyatli yakun topib, mutasaddilar ko'zlangan maqsadga erishadi, degan ummidamiz.

Niginabonu SHUKUROVA,
"Ma'rifat" muxbiri

Jarayon

Tanlov sinflarida jarayon qizg'in

Oliy ta'lim muassasalari qoshidagi akademik litseylarda o'quvchilar ta'lim yo'nalishlarini tanlab, shunga oid fanlarni ko'proq o'qiydi. Akademik litseyning 1- va 2- kursi maktabning 10-11-sinfiga to'g'ri keladi. Akademik litseyning aniq fanlar (fizika va matematika) yo'nalishida 1-kursda fizika fani haftasiga 6 soat o'qitiladi. Shundan 2 soati ma'ruza, 4 soati amaliy dars bo'lib, shu 4 soat dars ham 2 guruhga bo'lib o'qitiladi. Maktabning 10-sinfida esa fizika fanidan haftalik dars 2 soat. Maktablarda ham xuddi akademik litseylaridek ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'qitishni tashkil etish mumkinmi?

Xalq ta'limi vazirligining 2019-yil 28-dekabrda 405-buyrug'iga asosan maktablarning 10-11-sinfida variativ o'quv reja joriy qilindi. Bu loyiha ko'pchilikka manzur bo'ldi. Chunki o'quvchi hamma fanlarni to'liq egallay olmaydi.

Ma'lumki, tanlov sinflar uchun quyidagi yo'nalishlar tanlab olindi:

1. Xorijiy til va filologiya yo'nalishi.
2. Moliya-iqtisod yo'nalishi.
3. Texnologiya yo'nalishi.
4. Tabiiy fanlar yo'nalishi.
5. Ijtimoiy-gumanitar yo'nalishi.

Tanlov sinfi uchun variativ o'quv rejani tuzishda 2019/2020-o'quv yili-

ga mo'ljallangan tayanch o'quv rejada 10-11-sinflarga ajratilgan umumiy dars soatlari miqdori asos qilib olindi. Bunda, haftalik umumiy soatlar miqdori 10-sinfda 30 soatni, 11-sinfda 31 soatni tashkil etadi. Tayanch o'quv rejada 10-11-sinflarda 15 ta fan o'qitiladi. Tavsiya etilayotgan variativ o'quv rejada 10-11-sinflarda 8 ta fan o'qitiladi. Variativ o'quv rejada majburiy fanlar va tanlov fanlar o'tiladi.

Maktabimizda tanlov sinfi yo'nalishini aniqlash maqsadida 10-11-sinf o'quvchilari orasida so'rovnoma o'tkazganimizda, faqat bir nafar o'quvchi boshqa yo'nalishni tanladi. Ko'pchilikning talabiga muvofiq fizika

va matematika fanlari ilmiy va amaliy jihatdan chuqur o'rganiladigan tanlov sinflari tashkil etildi.

Xo'sh, bu tanlov sinfning an'anaviy sinfdan farqi nimada? An'anaviy 10-sinfda fizika fanidan haftalik dars 2 soatni tashkil etadi. Bu davrda fizika fanidagi mavzularni to'liq egallash uchun vaqt kamlik qiladi. Ochiq'ini aytganda, mavzularni to'liq tushuntirishga imkon bo'lmaydi. Bundan tashqari, bu sinfda fizika va matematika fanlarini o'rganishga layoqati bo'lgan o'quvchilar soni ozchilikni tashkil etadi. An'anaviy 10-sinfda 26 nafar o'quvchi o'qiydigan bo'lsa, ularning har qaysisi turli oliy o'quv yurtlariga o'qishga boradi. An'anaviy sinfda birorta fan bo'yicha chuqur bilim berilmaydi. Texnologiya yo'nalishi bo'yicha o'quv rejada majburiy fanlar 10-sinfda haftalik dars soati 19 soat. Tanlov fanlari esa (matematika va fizika) haftada 11 soatni tashkil etadi. Shu tanlov sinfida fizika fani haftasiga 7 soat o'qitiladi. Bu vaqt davomida fizika fani ilmiy va amaliy jihatdan chuqur o'rganiladi. Tanlov sinflarida

fizika fanidan murakkab mavzular o'rganiladi. O'quvchilarga fizikadan viloyat, respublika va xalqaro olimpiada masalalari dars jarayonida yechib ko'rsatiladi. Bularni amalga oshirish uchun dars soatlari yetarli. Qolaversa, tanlov sinflarida o'qiydigan o'quvchilarning hammasida yo'nalishga oid fanlarni o'qish ehtiyoji va layoqati bor. Tanlov sinflarida fizika va matematika fanidan ta'lim berishda o'quvchilarning qobiliyati, salohiyati va iqtidori rivojlantirib boriladi. An'anaviy sinfda o'qiydigan o'quvchilar darsdan so'ng fizika va matematika fanlaridan repetitorga borishga majbur bo'lardi. Tanlov sinfida esa bunga hojat qolmaydi. Variativ sinflarni tanlagan o'quvchilar orasida iqtidorlilari ko'p. Tashkil etilgan tanlov sinflarida o'quvchilar fizika va matematika fanlarini chuqur o'zlashtirmoqdalar. Bu jarayon, albatta, o'z natijasini beradi, deb o'ylayman.

Isroil JO'RAYEV,
Shofirkon tumanidagi 4-maktabning fizika fani o'qituvchisi,
O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi

PISAgaga tayyormisiz?

Ma'lumki, O'zbekiston 2021-yilda PISA xalqaro baholash dasturida ishtirok etadi. Bu dasturda 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasi aniqlanadi. Dasturda muvaffaqiyatli ishtirok etish uchun jiddiy tayyorgarlik ko'rish o'qituvchi va o'quvchilar zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklaydi. Har bir dars va to'garak mashg'ulotlarida tadqiqotda ishtirok etgan davlatlarning tajribasi, 2015-yilda tushgan PISA materiallari bilan muntazam tanishib borish zarur. Ayniqsa, o'quvchilarning matematik savodxonligini oshirishga alohida urg'u berish kerak.

Dars jarayonida an'anaviy savollar o'rniga o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga undaydigan, fanlararo bog'liqlikka e'tibor qaratadigan tabiiy-ilmiy savollarga urg'u berish dardor.

Masalan:

1) "Kamalakda qanday ranglar bor?" degan savol o'rniga "Nima uchun kamalakda qora rang yo'q?" (Qora rang tabiiy holatda mavjud emas, boshqa ranglar aralashmasidan iborat).

2) "Ikki nuqtadan nechta to'g'ri chiziq o'tkazish mumkin?" degan savol o'rniga "Kiyim ilgich mahkam bo'lishi uchun kamida nechta joyiga mix qoqiladi?"

3) "Aks-sado nima?" degan savol o'rniga "Nima uchun katta konsert zallari qalin pardalar va yumshoq o'rindiqlar bilan bezatiladi?"

4) "Ritmiklik" deb nimaga aytiladi?" degan savol o'rniga "Nima uchun insonlarning faolligi kunduzi soat 12 dan 14 gacha pasayadi?" kabi savollarni berish zarur.

O'quvchilarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish, ular tomonidan ko'proq savollar berilishini

qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish shart. Mazuga oid g'ayri-oddiy savollar berib yechimi ochiq qolgan muammo, g'oyalarni aniq dalillar asosida muhokama qilishga o'rgatish lozim. O'quvchilarning fanga oid biror narsa ixtiro qilishlari, yangilik yaratishlariga motivatsiya (turki) berish kerak. Kompyuterda biror muammoning foydali va zararli jihatlarni ochib berishga oid rasmlar chizdirishga e'tibor berish maqsadga muvofiq. Masalan, "Giyohvandlik" mavzusi berilganda giyohvandlikning zararli jihatlari, oqibatlarini ochib berish bilan birga, sog'lom turmush tarzini ham rasmlar orqali ifodalay olish kerak. Biror narsaning logotipini yaratish o'quvchini ijodkorlikka undaydi.

Darslarda DOK (Bilim chuqurligi) va BLOOM TAKSONOMIYASI darajasidagi savollarni berib borish lozim. Masalan, 8-sinf geografiyasidagi "O'zbekiston tabiiy sharoiti va boyliklarining milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati" mavzusi yuzasidan quyidagicha savol va topshiriq bilan murojaat qilish mumkin:

1. O'zbekiston yer boyliklariga qanday yerlar kiradi?

2. Obikor yerlar lalmikor yerlardan qanday farq qiladi?

3. Obikor va lalmikor yerlardan O'zbekiston sharoitida qanday foydalaniladi?

4. Nima uchun cho'llarda obikor yerlar samarasiz lalmikor yerlardan 1000 marta ortiq?

5. O'zbekiston cho'li, adir, tog' va yaylov mintaqasidagi yerlardan umumiy foydalanish uchun qaysi sohalarini rivojlantirish zarur, deb o'ylaysiz? Sizingcha, yerlarning unumdorligini oshirish uchun qanday tadbirlarni amalga oshirish zarur?

6. Ma'lumki, O'zbekistonning umumiy yer maydoni 44,4 mln gektarni tashkil etadi. Buning qariyb yarmi qishloq xo'jaligiga tegishli maydonlardir. Qishloq xo'jaligiga tegishli bo'lmagan maydonlarga qayerlar kiradi va ulardan qanday foydalanilsa milliy iqtisodiyot rivojlanadi, deb o'ylaysiz? O'z loyihangizni yarat.

Shu bilan birgalikda, 2015-yilda berilgan topshiriqlarni qo'llab, monitoring qilish, har bir o'quvchi bilan muntazam shug'ullanib borish dardor.

Yurtimizdagi barcha o'qituvchi va o'quvchilarni, Jahon banking 1% mablag'i kiritiladigan PISA tadqiqotlarida muvaffaqiyatli ishtirok etishini istagan barchani tinimsiz izlanishga chaqiraman.

Shahzodaxon NURBUVAYEVA,
Marhamat tumanidagi
24-maktabning
geografiya fani o'qituvchisi

PISA haqida eng ko'p beriladigan savollarga qisqa javoblar

1. PISA nima?

— O'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy fanlardan savodxonligini baholashga qaratilgan xalqaro baholash dasturi bo'lib, uning natijalari asosida dunyo mamlakatlari o'quv dasturlarida mavjud talablar doirasida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini hayotiy vaziyatlarda qo'llash, fikrlash va muloqot qilish qobiliyatlarini aniqlashga qaratilgan. Shu bilan birga, bu hech qanday o'quv dasturini belgilamaydi, targ'ib qilmaydi va umumiy e'tirof etishni taqozo etmaydi.

2. Tadqiqot kim tomonidan amalga oshiriladi?

— PISA tadqiqoti Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti(IHTT), Organization for Economic Cooperation and Development(OECD) tomonidan amalga oshiriladi. Tadqiqot ilk bora 2000-yili o'tkazilgan va 3 yilda bir marotaba o'tkaziladi.

3. PISA tadqiqotlari nima uchun har uch yilda o'tkaziladi?

— PISAning asosiy vazifasi a'zo mamlakatlarni ta'lim siyosatiga oid ma'lumotlar bilan ta'minlash, qarorlar qabul qilishda ularni qo'llab-quvvatlashdan iborat. Tadqiqotning har uch yilda o'tkazilishi esa mamlakatlarga siyosiy qarorlar va tegishli dasturlarning ta'sirini hisobga olish uchun ma'lumot va tahlillarni ichiga olgan holda o'z vaqtda axborot berish imkoniyatini yaratadi.

Shu bilan birga, mamlakatlar bu davr davomida o'z ta'lim tizimida kelajakda erishish ko'zda tutilgan maqsadlarni aniqlab olishiga imkon beradi.

4. PISA tadqiqotlarida nega aynan 15 yoshli o'quvchilar qatnashadi?

— Tadqiqot aynan 15 yoshli o'quvchilar doirasida o'tkazilishining asosiy sababi Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti(IHTT)ga a'zo aksariyat davlatlarda 15 yosh majburiy ta'lim bosqichining yakuniy davri hisoblanadi.

5. Savodxonlikni baholashda qanday kompetensiyalarga asoslanadi?

— Ushbu kompetensiyalarni o'quvchilarning tabiiy fanlardan savodxonligini aniqlashda qo'llaniladigan kompetensiyalar misolida ko'rib chiqamiz:

1. Hodisalarni ilmiy jihatdan tushuntira olish kompetensiyasi.
2. Ilmiy-tadqiqotlarni loyihalash va baholash kompetensiyasi.
3. Ma'lumotlar va dalillarni ilmiy talqin qilish kompetensiyasi.

6. Kontekst nima?

— Kontekstlar — PISA topshiriqlarining asosi sanaladi. Kontekst hayotiy muammoli vaziyatlar aks etgan topshiriqlar. O'z navbatida, kontekstlar shaxsiy, mahalliy va milliy (global) darajalarga bo'linadi.

7. PISA topshiriqlari darajalariga qanday talablar qo'yiladi?

— Topshiriqni bajarish uchun talab etiladigan intellektual va fikrlash qobiliyatiga ko'ra ular uchta kognitiv darajaga ajratiladi:

1. Quyi daraja — bir bosqichli amallar.
2. O'rta daraja — hodisalarni tavsiflash.
3. Yuqori daraja — murakkab ma'lumotlarni tahlil qilish.

Botirjon KARIMOV,
Kosonsoy tumanidagi
4-maktab o'qituvchisi

Gazeta va gazetxon

"Ustoz shogirdg'a dedi..."mi?

"Ma'rifat" gazetasining 2020-yil 5-fevraldagi 6-sonida chop etilgan Eldor Asanovning "Navoiy asarlarini to'g'ri o'qiyamizmi?" nomli maqolasini katta qiziqish bilan o'qidim. Avvalo, gazetada "So'z tarixi — o'z tariximiz" rukni tashkil etilgani va tilimiz tarixi va muammolariga oid dolzarb mavzularda maqolalar berilayotganidan mamnunmiz. Chindan ham, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur davri bilan bog'liq filmlarni ko'rganimizda yoki tarixiy asarlarni o'qiganimizda muallif bildirgan e'tirozlar bizning ham ko'nglimizdan o'tgan.

Ayniqsa, muallifning "O'zbek tili tarixi o'rgatilsa, kinochilar, televideniyechilar va hatto yozuvchilar yo'l qo'yadigan yana bir xato yo'q bo'lardi: kinoda, kitobda voqealar X asrda bo'ladimi, XIX asrda bo'ladimi, hamma mana shu Navoiy tili deb tasavvur qilinadigan tilda gapiradi. Yozuvchi va kinochilarimiz Beruniyni ham, Qodiryni ham "sizg'a-bizg'a"latadi. X asrdagi til



XIII asrdagi tildan ham kuchli farq qilgan", degan mulohazalari biz muallimlarni ham o'ylantiradi.

Demak, ona tilimiz tarixini jiddiy o'rganishimiz zarur. Buning uchun esa Eldor Asanov ta'kidlaganidek, Navoiy asarlarini bugungi tilga moslashtirib, darsliklarga kiritish yetarli emas. Chig'atoy tili asoslari ham o'qitilishi kerak. Shunda o'zbeklarda bobo til haqida muayyan tasavvur hosil bo'ladi. Hozir-g'a qo'shimchasi, "erdi" fe'lini aniq tartibga ega bo'lmagan arxaizm deb o'ylayotganlar ular


aslida muayyan qonuniyatlarga asosan ishlatilishini tushunib yetadi. Biz o'z tilimiz tarixini qanchalik hurmat qilsak, bizdan keyingi avlodlar ham ona tilimizni o'zgacha mehr bilan o'rganadi. Qolaversa, tarixiy asarlar yozishga shaylanayotgan yosh ijodkorlarimiz ham bu jarayonga o'ta hushyorlik bilan yondashadi. "So'z tarixi — o'z tariximiz" ruknida yana ko'plab bizni fikrlashga undaydigan shunday maqolalar e'lon qilinishini istaymiz.

Gulshanoy MIRZALIYEVA,
Uchko'prik tumanidagi
15-maktab o'qituvchisi

Insoniyat va yadro energiyasi

(Birinchi maqola)

Yadro energetikasi energiyani ikki turi — elektr va issiqlik energiyasini ishlab chiqaruvchi sohadir. Odatda yadro energiyasini olish uchun uranning 235-izotopi yoki plutoniyni 239-izotopi bo'linishidagi zanjir reaksiyadan foydalaniladi. Yadro bo'linishi uchun u neytron (elektr zaryadiga ega bo'lmagan og'ir elementar zarra) bilan to'qnashishi zarur va buning natijasida nisbatan yengil yadro parchalari hamda yangi neytronlar hosil bo'ladi. Yangi neytronlar zanjir reaksiyaning uzluksizligini ta'minlaydi va har bir bo'linishda muayyan issiqlik energiyasi ajralib chiqadi.



Energetikaning barcha sohalarida energiyani birlamchi manbaya quyoshdir. Yadro energetikasi deganda yadro reaktorlarida amalga oshiriluvchi, boshqariluvchi yadro reaksiyalari tushuniladi. Yadro energiyasi Atom elektr stantsiyasida (AES) ishlab chiqariladi. AESning o'zagi yadro reaktori. Birinchi yadro reaktori italiyalik buyuk olim Enriko Fermi rahbarligida 1942-yili Amerika Qo'shma Shtatlarida yaratildi va ilk bor yadro zanjir reaksiyasi amalga oshirildi. Bunda yonilg'i sifatida uran va sovutkich sifatida grafitdan foydalanildi. Yadro reaktorlari turli maqsadlarda quriladi. AESlar uchun mo'ljallangan reaktorlar, doimiy ravishda energiya ajralishi bilan, boshqariluvchi yadro zanjir reaksiyasi amalga oshiriluvchi qurilmadir.

1955-yil avgustida Jeneva shahrida atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish bo'yicha o'tkazilgan birinchi xalqaro ilmiy-texnik konferensiyada yadro energetikasi energiya ishlab chiqarishning yangi yo'nalishi sifatida tan olindi va bu bilan yadro energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanishdagi xalqaro hamkorlik boshlandi.

AESdan qanday foydalaniladi?

Yadro reaktorlarining tuzilishi, ishlash tamoyillari turlicha va juda murakkab bo'lib, undan kerakli maqsadlarda foydalanish uchun reaktor har bir qismini nihoyatda katta aniqlik bilan tayyorlash talab etiladi. Masalan, boshqariluvchi yadro reaksiyasini amalga oshirish va uning xavfsiz, davomiy ishlashini ta'minlash uchun ishlovchi asboblardagi chetlanishlar (xatoliklar) 10–8 dan oshmasligi kerak. Bu esa AES va yadro reaktorlari ustida mehnat

qilayotgan olimlar, konstruktor va muhandislardan chuqur bilim va malaka talab etilishini ko'rsatadi. AESdan foydalanish uchun quyidagi asosiy ishlar bajarilishi lozim:

— tabiiy uran rudalarini qazib olish, ularni kerakli darajada maydalash;

— maydalangan tabiiy urandan radioaktiv bo'lgan uran dioksidini ajratib olish va uni gazsimon bo'lgan uran geksoftoridiga aylantirish;

— uranni boyitish, ya'ni tabiiy uran tarkibida uran-235 izotopining konsentratsiyasini oshirish.

Uran-235 izotopining konsentratsiyasi yetarli darajada bo'lgandagina zanjir reaksiyasi amalga oshadi. Shu

Keyingi yillarda AESlarda ishlab chiqarilgan elektr energiyasi dunyo bo'yicha ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining to'rtinchi qismini tashkil etmoqda. Bunda AESlar tomonidan atmosferaga chiqarib yuborilayotgan uglerod miqdori elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi boshqa manbalarga nisbatan GVt.ga yetdi.

sababli uranni boyitish jarayoni izotoplarni ajratish uchun maxsus qurilgan zavodlarda quyidagicha amalga oshiriladi:

— uran geksoftoridi qaytadan tabletkalar ko'rinishida uran dioksidiga aylantiriladi va ulardan issiqlik ajratuvchi elementlar tayyorlanib, tartiblangan holda yadro reaktorining faol sohasiga kiritiladi;

— reaktordan ajralib chiquvchi energiyani issiqlik tashuvchi vositalar orqali chiqarib olib, undan kerakli maqsadlarda foydalaniladi.

Yadro reaktorlarining ko'pgina turlari mavjud bo'lib, ularning tuzilishi va

yonilg'isi reaktordan qanday maqsadda foydalanish ko'zda tutilganligi bilan farqlanadi. Yadro reaktorlarining eng ko'p tarqalgan turlari yadro yonilg'isi sifatida boyitilgan uran qo'llaniluvchi va issiqlik tashuvchi sifatida oddiy suvdan foydalaniluvchi yengil suv reaktorlaridir. Uning ikki turi majud: 1) turbinalarni aylantiruvchi bug' bevosita faol sohada hosil bo'luvchi qaynovchi reaktor; 2) bug' faol soha bilan bog'langan issiqlik almashtiruvchilar va bug' generatorlaridan iborat bo'lgan konturda hosil bo'luvchi bug'-suv energetik reaktorlari (BWR).

Atom energiyasi ekologik toza manbaga aylanadi

Bugungi kunda yadro energetikasi insoniyatni dunyoda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining 20–25% i bilan ta'minlaydi. Tinchlik maqsadlaridagi atom energiya bloklarining qurilishi yangi texnologiyalarni yaratish, mamlakatning yangi va tezkor rivojlanish bosqichiga o'tishidagi imkoniyatlarning oshishiga olib keladi. Buni Amerika va Yevropaning rivojlangan davlatlari misolida ko'rishimiz mumkin. Shu nuqtayi nazardan, yadro energetikasidan foydalanish maqsadlariga tor doirada qaramaslik lozim.

Hozirgi kunda insoniyatning energiyaga, uning qay turda bo'lishiga qaramasdan, ehtiyoji juda tez sur'atlarda oshib borayotgani hech kimga sir emas. Ammo jamiyat uchun bugungi kunda ham uch omil muhimdir: olinayotgan energiyani tannarxi va energiya manbayining atrof-muhit ekologiyasi uchun zararsizligi, energiya manbayining xavfsizligi va qanchalik samarali ekanligi, energiya ta'minotining uzluksizligi va davomiyligi.

Atom energetikasi bu uch omilga ham qoniqli tarzda javob bera oladi. Masalan, AES ishlab turganda atmosferaga chiqariluvchi uglerod miqdori boshqa energiya manbalariga (ko'mir yoki gazda ishlovchi) nisbatan olganda juda kam. Atrof-muhitga tarqalayotgan radioaktiv izotoplar miqdori, radioaktiv chiqindilar darajasi xalqaro me'yorlarga to'liq mos kelishi kerak. Xomashyo vaznining kichikligi atom elektrostansiyasi ishlab chiqaruvchi energiyani tannarxini bir necha o'n yillar davomida, mutanosib tarzda, deyarli bir xil ushlab turish imkonini beradi. Katta quvvatli AESlarning ishlash muddatini, ularning resurslarini almashtirib turish bilan 60–70 yilga yetkazish mumkin.


Ko'pgina davlatlar energetika vazirliklarining muammolarining bu tarzda yechimlari to'g'risidagi qarorlari yuqoridagi fikrlar bilan mos tushadi.

Masalan, Fransiya hukumati muqobil energiya manbalarini rivojlantirish bilan bir qatorda mamlakat energiya ta'minotining kamida 75% ini AESlar zimmasida qoldirmoqda. Shu sababli bu mamlakatda elektr energiyasining tannarxi Yevropadagi boshqa davlatlarga nisbatan eng past ko'rsatkichga ega.

Birlashgan Arab Amirliklari Atom energiyasi tashkiloti bosh direktori Muhammad al-Hammadi fikricha, mamlakat elektr energiyasi ta'minotining 25% ini AESlar tashkil etishi kerak. Bu esa atmosferaga 3 million tonna uglerod dioksidi chiqib ketishining oldini oladi. Belorussiyada AESning qurilishi mamlakat elektr energiyasi iste'molining uchdan bir qismi bilan ta'minlaydi. Respublika energetika vaziri V.Karankevichning aytishicha, atom energiyasi, ilmiy-texnik potentsialni rivojlantirish, yangi ishlab chiqarish korxonalarining paydo bo'lishi, transportda va aholi yashash uylarini isitish tarmoqlarida elektr energiyasidan foydalanishning yangi sohalarini kengaytirishga hamda rivojlantirishga imkoniyat yaratadi.

Dunyoda sanoatning jadal rivojlanishi tufayli yaqin yillarda elektr energiyasiga bo'lgan talab nihoyatda ortib ketishi bashorat qilinmoqda. Jahonda yetarlicha energiya balansini ta'minlash, iqlim o'zgarishlarini yumshatish kabi murakkab masalalarning yechimlaridan biri ishga tushirilayotgan yadro quvvatlarini oshirishdan iboratdir. Keyingi yillarda AESlarda ishlab chiqarilgan elektr energiyasi dunyo bo'yicha ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining to'rtinchi qismini tashkil etmoqda. Bunda AESlar tomonidan atmosferaga chiqarib yuborilayotgan uglerod miqdori elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi boshqa manbalarga nisbatan kichik qismni tashkil etadi. Bugungi kunda dunyodagi barcha yadroviy reaktorlarning umumiy quvvati rekord darajada bo'lib, 400 GVt.ga yetdi. Ishlab turgan ba'zi reaktorlarning nisbatan eskirganligi yoki boshqa omillarga ko'ra ular ish faoliyatining to'xtatilishi energiya balansini ushlab turish uchun yanada quvvatliroq bo'lgan AESlarni loyihalashtirish va ishga tushirishni talab etmoqda. Ko'pgina davlatlar tomonidan tabiiy gaz narxining pastligi, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish yo'llarini izlash lozimligi haqida gapirilmoqda. Shunga qaramasdan, rivojlangan mamlakatlarda yadro energetikasiga qiziqish kuchaymoqda. Parij kelishuvi hamda boshqa tashabbuslar bu sektorni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashning potentsiali bo'lib xizmat qilishi mumkin.

“Tole” yi baland “Boburnoma” ning “parol”i



“Topilmas sening misling...”

Zahiriddin Muhammad Bobur masnu' janrida yozgan asarlari shoir sifatidagi iste'dodining darajasini ko'rsatib turibdi. Masnu' — arabcha so'z bo'lib, “san'atli”, “ziynatli” ma'nolarini anglatadi. Unda she'r matni boshidan o'qisa ham, oxiridan teskari o'qisa ham bir xil ma'no bildiradi:

*Tishing dur, labing marjon, hiding gul,
xating rayhon,
Yuzung hur, soching anbar, so'zing mul,
menging meynon.
Meynon menging, so'zing mul, anbar
soching, yuzung hur,
Rayhon xating, hiding gul, marjon
labing, tishing dur.*

She'rda dastlabki ikki baytda ishtirok etgan so'zlar keyingi ikki baytda o'zgacha tartibda keladi. To'rtinchi misraning oxiridan yuqoriga o'qilganda birinchi bandda qanday bo'lsa, shunday o'qiladi.

*Tafakkur necha qilsam, topilmas
sening misling,
Pariydek seni ko'rdim, emassen
magar inson.
Inson magar emassan, ko'rdim
seni pariyydek,
Misling sening topilmas, qilsam
necha tafakkur.*

Masnu'larda tilimizning go'zal imkoniyatlari ko'rinadi. Inversiya hodisasi ham badiiyatga putur yetkazsa olmaydi. Bobur masnu'larning ajoyibligi shundaki, janrning qat'iy matematik talabi ichida ham go'zal tashbehlarga duch kelasiz.

Ro'za RAJAJOVA,
Gurlan tumanidagi
26-maktab o'qituvchisi

“Qoldi falondin yaxshilig'...”

Endigina adabiyotga oshno bo'lgan murg'akkina qalbm hayot va inson haqida bolalik tasavvurlari bilan to'lib-toshgan onlarda ulug' shoirning quyidagi satrlari yurakka jo bo'lgan:

*Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur,
Har kimki jafu qilsa, jafu topqusidur...*

Ulg'ayganim sari firibgarlar ham shod-xurram bo'lganini ko'rdim. Vafoliga vafo qani-yu, yomonga jazo qani? Agar jafu shunday bo'lsa, yashashning qizig'i bormi? Savolimga yana Bobur hazratim javob beradi: “...G'am yemaki, yetkursu boshini ko'kka, Oxir yana yer kibi oni past qillar”. Yomonning boshi ko'kka yetsa-da, oxiri yer bilan teng bo'ladi. Yaxshilarning ko'zi namligi ham vaqtinchalik. Bunday bo'lmasa, yashashga ne hojat? Insonning hayotga kelishidan maqsad ezigulik qilish, bu nurlu yo'lda kurashishdir. Zero:

*Bori elg'a yaxshilig' qilg' ilki,
mumdin yaxshi yo'q,
Kim degaylar dahr aro qoldi
falondin yaxshilig'.*

Zamira ANIYOZOVA,
Hazorasp tumanidagi
27-maktab o'qituvchisi

(Davomi. Boshi 1-betda.)

Ma'lumki, Qur'oni karimdan oldingi muqaddas kitoblar ibroniy tilida nozil bo'lgan, mazkur kitoblardagi majoziy hikoyalarga nisbatan ibroniy tilida “**mashal**” so'zi ishlatilgan, o'z navbatida, “**mashal**” yunon tiliga “majoziy hikoya” ma'nosida “**paravoli**” so'zi bilan tarjima qilingan.

Ayni paytda, yahudiy, arab va boshqa somiy xalqlarning (semit xalqlarining) tillari, ayniqsa, yahudiy va arab tillari bir-biriga yaqin. Masalan, ko'plab so'zlarni yahudiylar “sh” tovushi orqali, arablar “s” orqali talaffuz etadi, ya'ni “yil” — arab tilida “sana”, yahudiylarda “shona”; “bosh” — arab tilida “ra's”, yahudiylarda “ra'sh”; arabcha “salom” — yahudiylarda “shalom” singari. Shu kabi yahudiylar “**mashal**”ning arabcha shakli “**masal**”dir. “**Masal**” o'zbek tilida ham faol, ya'ni biz ham uni “majoziy hikoya” ma'nosida qo'llaymiz. Shunday qilib, yahudiylar “**mashal**” dastlab yunon tiliga “**paravoli**” deb tarjima qilingan, “**paravoli**” esa lotin tiliga “**parabola**” bo'lib o'tgan, “**parabola**” xalq tilida “**paraula**” deb talaffuz etilgan, “**paraula**”dan esa italyanча “**parola**”, fransuzча “**parole**” so'zlari paydo bo'lgan va bu so'z rus tiliga “parol” shaklida ko'chganligining guvohi bo'ldik.

Biz esa “parol”ni “shartli maxfiy so'z” ma'nosida bilamiz, uning yuqorida keltirilgan etimologiyasi, asliyadagi ma'nolari bizga begona. Xo'sh, “shartli maxfiy so'z” ma'nosini bildiruvchi “parol” so'zining sof o'zbekcha muqobilini topish mumkinmi? Shunga da'vogar bir so'zni “Boburnoma” asaridan o'qishimiz mumkin:


*“Bu kayfiyat mundaq ekandurkim,
Ayyub Bekchikniy tumandin bir necha mo'g'ul O'shdin bizdin ayribil qazoqliqqa Andijomning girdig'a kelgan ekandurlar. Bizning cherikning g'avg'osin eshitib, inchkalik bila ilgarrak kelib o'roundashurlar (ta'kid bizniki — A.H.). Bu o'ron ikki nav' bo'lur: ulkim, har qavmning o'roni bor, nechukkim, ba'zi qavmning o'roni “durdona”dur va ba'zining “to'qboy”, ba'zining “lulu”; yana bir tanom cherikka ish mahalida ikki lafzni o'ron qo'yarlarkim, ish vaqtida uchrashqonda, biri bir lafzni aytqonda, yana biri ul ma'hud (ahdlashilgan — A.H.) lafzni aytqay, to bu tariq bila ul yog'iydin ayribilg'ay va o'z kishisini yordin farq qilg'ay” (“Boburnoma”. 2002. 92-bet).*

Ya'ni ushbu o'rinda Bobur Markaziy Osiyoda mo'g'ul qavmlari o'rtasida Chingizxondan keyin ham uning harbiy an'analari davom ettirilgani haqida gapiradi. Boburga ko'ra, “o'ron” — ikki tomon o'rtasida kelishib olingan, “ahdlashilgan”, “shartli maxfiy so'z”. “O'ron ikki xil bo'ladi, — deydi Bobur, — birinchisi, har bir qavmning, urug'ining o'z maxfiy so'zi bo'ladi. Ikkinchisi, ish, ya'ni jang yoki ziddiyat mahali askarlar o'rtasida “maxfiy so'z” kelishib olinadi va o'z odamini dushmanidan farqlash uchun o'sha so'z aytiladi”.

E'tibor qilinsa, Boburning “o'ron” so'ziga bergan mazkur izohi hamda “parol” so'ziga “O'zbek tilining izohli lug'ati”da keltirilgan sharh deyarli bir xil. Ya'ni ikkalasi ham: “o'z kishilarini tanish uchun uchrashganda aytiladigan

va oldindan belgilab qo'yiladigan shartli maxfiy so'z”, deb izohlangan.

“O'ron” — “o'z”, “o'zimizniki” ma'nolaridagi mo'g'ulcha “o'r”, “o'rov” so'zlaridan kelib chiqqan bo'lishi mumkin, ammo bu so'zni turkiylarga begona deb bo'lmaydi. Mirzo Ulug'bek “To'rt ulus tarixi”da mo'g'ul tili ilgari turkiy tilga yaqin edi, deb yozadi. Qolaversa, turkiy xalqlarda azaldan har bir qabilaning o'z belgisi bo'lgan. Mahmud Koshg'ariy “Devonu lug'otit turk”da yigirma ikki o'g'uz urug'ining “har birining maxsus belgilari, tamg'alari” bo'lganligini yozadi (1-tom, 89-bet). Chingizxon o'rdasining aksariyat qismini esa turkiy qabilalar tashkil etgan.



Demak, bu so'z Oltin O'rdaga daxldor turkiy qavmlar, xususan, 92 o'zbek urug'iga ham tanish bo'lgan, deyish mumkin.

O'zbek xalq dostonlarida “o'ron” emas, “o'rol” so'zi ko'p uchraydi. Xususan, “Malikayi Ayyor” kitobidan olingan ushbu iqtibosdagi kabi: “Shunda devlar Avazga qarab: — O', jiyanim! “Yo'l bo'lsin” — gapning o'roli bo'ladi, sizlarga yo'l bo'lsin, — dedi”. Yoki Ergash Jumanbulbul o'g'lidan yozib olingan “Ravshan” dostonidan: “O'zbekka “yo'l bo'lsin” degan so'z gapning o'roli bo'ladi”. Yoki Tog'ay Muroddan: “Gapning o'roli keldi, aytayin...” (“O'tamdan qolgan dalalar”). Guvohi bo'lganimizdek, keltirilgan hamma misollarda “o'rol” “gap”ning sifati bo'lib kelyapti. Lug'atda: “o'rol — gap yoki nutqning boshi, boshlanish, muqaddima”, deb izohlangan. Yuqorida biz “parol” so'zini mushohada etganda “parabola” xalq tiliga “paraula” shaklida ko'chganligining guvohi bo'ldik. “O'ron” va “o'rol”da ham shunday hodisa sodir bo'lgan bo'lishi mumkin.

“Tole” yo'qijonimg'a balolig' bo'ldi... Bobur asarlarini o'qiganda ular dilga yaqinligi, samimiyati bilan ham kishini o'ziga jalb etadi. Xususan, quyidagi ruboiy besh asr o'tib ham xuddi kechagina qulog'imizga aytilganday:

*Tole' yo'qijonimg'a balolig' bo'ldi,
Har ishni ayladim — xatolig' bo'ldi.
O'z yerni qo'yub, Hind sori yuzlandim,
Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi?!*

Ushbu misralarda bugungi o'quvchi uchun tushunarsiz so'z yo'q, ammo “tole” yo'qligi”ni qanday izohlash mumkin? Shoir

barcha omadsizliklarining sababchisi faqat bir narsa — tolesizlik ekanligidan shikoyat qilyapti, go'yoki “tole” yo'qligi” tarozining bir pallasida, boshqa barcha tafsilotlar ikkinchi pallasida. Nega Bobur bu yerda aynan “tole” so'zini qo'llagan, uni “baxt”, “omad”, “taqdir” yoki boshqa so'z bilan almashtirish mumkinmi?

“Tole” so'zi asli arabcha, “chiqayotgan”, “ko'tarilayotgan” kabi ma'nolarni bildiradi. U “tala'a” (طَلَا) o'zagingining masdari. “O'zbek tilining izohli lug'ati”da “tole” so'zi “omad”, “baxt” deb izohlangan. Ammo “tala'a” fe'lining biror bobida (arab nahvida fe'l boblari degan hodisa mavjud) “omad” yoki “baxt”ga yaqin ma'no ko'rmadik. Buning sababi, “tole” so'zi aslida lotincha “assendent” atamasining arabcha tabdilidir. Lotincha “assendo” fe'li ham “tala'a” singari “ko'tarilish”, “chiqish” kabi ma'nolarni bildiradi.

Islom olamining uyug'onishi, ilm-fan borasida yuksak cho'qqilarga erishilgan Abbosiylar davrida juda ko'p ilmiy asarlar lotin, yunon, sanskrit va boshqa tillardan arab tiliga o'girildi. Shu jumladan, Batlimus (Ptolemy)ning “Al-Majistiyy” va boshqa asarlari ham. “Al-Majistiyy” — astronomiyaga oid qomusiy asar. Batlimusning boshqa asari — “Tetrabiblos” astrologiyaga oid. Ya'ni o'sha davrda shu kabi ilmiy asarlar bilan birga ko'pgina ilmiy atamalar ham arab tiliga tarjima qilingan. Shu bilan birga, ilm-fan, xususan, falakiyot ilmlari Islom olami olimlari tomonidan yanada rivojlanirildi va o'z navbatida, Nadir (Nazir), Zenit (samtur-ra's), aldabiran kabi yuzlab

asli arabiy, forsdiy bo'lgan atama va ismlar bilan bu ilmlar boyitildi.

“Assendent” deb — ilmiy najum (astrologiya) va ilmi hay'at (astronomiya) da — epliptika chizig'ining sharqiy ufq (kunchiqar) bilan kesishgan nuqtasiga nisbatan aytiladi. “Tole” atamasi ham dastlab falakiyotchi olimlar tomonidan faqat shu ma'noda qo'llanilgan. Astrologiyada “assendent”, ya'ni “tole” nuqtasi muhim hisoblanadi. Inson tug'ilgan soniyada kunchiqarda qaysi burj bo'lganligi, qaysi sayyora kunchiqardan ko'tarilayotganligi yoki boshqacharoq aytisak, tulu' etayotganligiga qarab munajjmlar uning fe'l-avori, birinchi navbatda, u tug'ilgan soniyada toleyida, ya'ni kunchiqarda qaysi burj, qaysi sayyora bo'lganligiga bog'liq.

Shu bois “toleyi porloq”, “toleyi kulg'an” kabi iboralar mavjud. “Tole” so'zining “baxt”, “omad”, “taqdir”, “qismat” kabi so'zlardan farqi — u mutlaqo ilmiy nujumga oid tushunchadir. “Istarasi (setorasi), ya'ni yulduzi” issiq”, “yulduzi issiq” kabi iboralar ham shu ma'nolarda.

O'tmishda ilm ahli, adib-u shoirlarning aksariyati ushbu ilmlardan muayyan darajada xabardor bo'lishgan. Xususan, Sharafiddin Ali Yazdiy ilmi nujumga oid risola ham yozgan, “Zafarnoma”da bu ilimga oid atamalar juda ko'p qo'llaniladi. Navoiy dostonlarining ba'zi boblarini falakiyotga oid atamalarni bilmay turib tushunib bo'lmaydi. Shu kabi Bobur ham “tole” so'zining tub ma'nosini to'la his qilgan holda uni qo'llagan.

Abduvohid HAYIT

Elparvar hukmdor

“Boburnoma”da hazrat Boburning 111 yoshli onaxon bilan uchrashgani haqida so'z boradi. U uyiga tushgan kishi haqida so'zlay turib: “...uyiga tushdim, qari kishi edi. Oltmish-yetmishda bor edi. Vale onasi hali bor edi. Yuz o'n bir yoshda edi... Ushbu xotunning o'zidin tuqqan va nabira va nabirayi nabira to'qson olti kishi edi. O'lganlari birla ikki yuz hisob qilar edi...”.

Bu misralarni o'qir ekanman, ham ota, ham ona tomonidan ulug' hukmdorlarga avlod bo'lgan Boburda sultonlik kibri yo'qligi, insonlarga e'tiborli ekani, ularni tinglay olishi, keksalarning hurmatini joyiga qo'yishiga tahsinlar aytdim. Bugungi hokimiyat amaldorlari har bir insonni tinglashda, ularning suhbatlariga, iltijolariga quloq tutishda Bobur mirzodan o'rmaq olsalar, yaxshi bo'lar edi.

Mahbuba NURMATOVA,
Shahrixon tumanidagi
22-maktab o'qituvchisi

“Ko'rdim yomonliq asru ko'p...”

Ijtimoiy tarmoqda Qarshi shahri “Atlas media parki” bannerida Mirzo Boburning qo'lga pitsa tutqazib qo'yilgan suratiga ko'zim tushib qoldi. Quyidagi gaplar yozilgan edi yonida:

*“Tunda istasang yemak,
Buyurima qilish kerak!
Tezlatib pishiramiz,
03:00 gacha xizmatdamiz...”*

Mazkur holat yuzasidan bannerda yozib qo'yilgan telefonaga qo'ng'iroq qildim. Pitsa pishiradigan firmaning menejeri bilan gaplashdim. Aytishicha, bannerlar, reklama qog'ozlari ularga Toshkent shahrida joylashgan “Atlas media parki”dan jo'natilgan. Ular esa bannerni ilib qo'yishgan xolos. Ta'kidlashicha, bu masala bilan viloyat madaniyat boshqarmasi shug'ullanar ekan. “Olib tashlanglar, deyisha bo'ldi, olib tashlaymiz, buyurqni kutaypmiz, gap yo'q”, deydi boshqaruvchi.

Bugun hazrat Boburning qo'lga pitsa tutqazib qo'yishsa, etraga bundan ham battarini o'ylab topishadi. Millatni sharmanda qilishdan tiyilaylik!

Islom ASILBEKOV,
O'zJOKU talabasi



Shu tariqa yuqoridagi keltirilgan omillarning hammasi birlashgan holda buyuk fohit Zahiriddin Muhammad Boburning Hindistondek murakkab hudud uchun tavakkal etishiga rag'bat bergan edi. Ha, chin ma'noda tavakkal qilishga. Boisi, manbalarga taysanak, Bobur Hindistonning o'sha vaqtdagi harbiy-siyosiy ahvolini qay darajada bilmasin, mushohada etmasin, baribir dushman kuchlari yetarli miqdorda ustun edi. Qolaversa, hayotning achchiq zarbalari ortidan ortirilgan kuchli tajriba, goh unchalik nazarga tushmaydigan shahzoda, goh mag'lub sarboz, goh g'olib sarkarda ko'rinishidagi Bobur Mirzoga bu safar buyuk g'alabani in'om qildi. Hamda dunyo tamadduniga beqiyos hissa qo'shgan saltanat shakllandi.

Bahromjon XUDOYBERDIYEV,
Erkin Vohidov nomidagi ijod maktabi
o'qituvchisi

Sahifani Suhrob ZIYO tayyorladi.

Boburning “Hind sori” yuzlanishi

Sabab, qiyos, tahlil

Movarounnahr tarixida o'chmas iz qoldirgan, Afg'oniston va Hindiston tarixida esa bir necha asrga tatigulik burilish yasagan, bu mamlakatlar xalqlarining madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotida katta o'zgarish qilgan buyuk davlat arbobi, mohir sarkarda, mumtoz ijodkor Zahiriddin Muhammad Bobur podshohi g'oziy hind sarzaminida Boburiylar saltanatiga asos soldi.

Hindistonda Bobur tamal toshini qo'yan davlat tarixi haqida bugungi kun tarixchilari va tadqiqotchilari tomonidan fikr bildirilar ekan, Boburning nega aynan Hindistondek noqulay va ayni vaqtda murakkab (noqulay atalishga sabab, iqlimining Turkistondan tubdan farqlanishi; murakkabligiga sabab hind millatining etnologiyasi va dinidagi ko'ptarmoqlik) hududni tanlagani qiyin bir savolni o'rtaga tashlaydi: “Nega aynan Hindiston?”.

Ushbu masala yuzasidan mamlakatimiz hamda dunyoning turli olimlari turlicha farazlarni ilgari surgan. Masalan, taniqli o'zbek olimi N.Nizomiddinov o'zining “Buyuk Boburiylar tarixi” kitobida ma'lumot berishicha, Boburshohning aynan Hindistonni tanlashiga quyidagi uch omil sabab bo'lgan:

1. Temuriylar inqirozidan keyingi umumiy beqarorlik. Ya'ni, Shayboniyxon bosqini natijasida sulolada avjiga chiqqan feodal-siyosiy inqiroz.
2. Temuriylarning sobiq saltanat o'rnida davlat

qurish yo'lidagi urinishi. Odatda barcha podshohzodalarning fe'l-avorida bo'lganidek, Boburning ham qalbida buyuk markazlashgan davlat qurishdek orzu jo'sh urgan edi.

4. Hindistonda qotib qolgan diniy aqidalar va ijtimoiy turmush. Bu holatni Hindiston Respublikasining birinchi Bosh vaziri Javoharlar'l Neru shunday ta'riflaydi: “Ahvola yana shu boisdan yomonlashgan ediki, qotib qolgan diniy aqidalar va o'ta biqlik turmushning asosini tashkil qilib, taraqqiyotni to'xtatib qo'ygan edi”.

Yuqoridagi masala yuzasidan hind tarixchi olimi L.Sharma ham fikr bildirib, shunday deydi: “Shayboniyylar va eroniyar o'zaro urushda bir-birlarini yenga olmagach, ulardan hech biri Kobuldagi Boburni bezovta qila olmaydi”. Demak, uning fikricha, Safaviylar va Shayboniyar o'rtasidagi Xuroson uchun kurash hamda tomonlarning hech biri bu kurashda yaqqol g'olib emasligi, natijada Kobulning bezovta etilmasligi, uzoq yillik tayyorgarlikdan keyin siyosiy jihatdan tarqoq Hindistonni zabt etishga Boburda katta imkoniyatni vujudga keltirgan. Xuddi shu masala yuzasidan ingliz sharqshunosi Denison Ross esa, Boburda Hindistonni zabt qilish orzusi “Kobuldagi soliq yig'ish jarayoni muvaffaqiyatsiz kechishi” ortidan shakllangan deydi. Ya'ni, Afg'on tuprog'idan yetarli darajada mablag

topilmagach, Bobur noiloj azaliy va afsonaviy boyliklar maskani Hindistonni mo'ljal ostiga olgan. Rus muarrixlaridan K.Antonova ham yuqoridagi masala yuzasidan fikr berib, quyidagilarni aytgan: “Bobur bu yurishdan (Hindiston) qaytgudek bo'lsa, uncha katta bo'lmagan hududning kichik bir hokimi bo'lib qolishini yaxshi bilar edi”. Geografik jihatdan chor tomoni tog'lar qurshovidagi Kobul, balkim, chin ma'noda buyuk orzular jo bo'lgan yurakka torlik qilgandir, ehtimol.

Shunday qilib “Nega aynan Hindiston?” savoliga har turli javoblar iddao qilingan bir pallada, o'zbek olimasi, akademik S.Azimjonova ortiqcha isbot talab qilmaydigan yo'l tutgan va “Boburnoma”dan quyidagi ma'lumotlarni taqdim etgan: “Bu so'zlar orqaga tushitikim, o'zbek va Shayboqxondek yot el va qari dushman jami Temurbekning avlodining iligidagi viloyatga mutasarrif bo'ldilar. Turk va chig'atoydin har go'sha va kanorda kim qolib edilar, ba'zi rag'bat bila, ba'zi qahr bila o'zbekka payvas ta bo'ldilar. Bir men Kobulda qolib edim. Dushman bisyor qaviy, biz ko'p zaif, ne maslahat qilmoqqa ehtimol, ne muqovamat qilmoqqa majol. Muncha quvvat va qudrat. O'zumizga bir yer fikrini qilg'uluqudr va bu miqdor bafurja fursatta qaviy dushmandin yiroqroq ayribilg'uluqudr, yo Badaxshon jonibi, yo Hinduston sori jazm qilmoq kerak”.

Chindan-da, Bobur Mirzo 1504-yildan e'tiboran Kobul viloyatini boshqarar ekan, to 1512-yilgi G'ijduvon mag'lubiyatini boshidan o'tkazmagunigacha Movarounnahrda unimidi uzmaydi, ammo 1512-yil noyabr oyida shayboniyzodalarning ber-

gan kuchli zarbasi ortidan endi u bir umr taqdirga tan berishga majbur bo'ladi. Fikrimizcha, hammasi aynan 1512-yilgi mag'lubiyatdan keyin boshlangan. Shu o'rinda yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, “Nega aynan Hindiston?” savoliga shaxsiy fikrlarimizni ham berib ketsak:

Birinchidan, oxirgi vaqtlarda shayboniyzodalar Ko'chkinchixon hamda Ubaydulloxonlar zamoni-da Buxoro xonligi harbiy jihatdan bir qadar o'zini tiklaydiki, Kobuldek kichik viloyatda faoliyat boshlagan Bobur ularga qarshi harbiy qudratni shakllantirishi mahol edi.

Ikkinchidan, Movarounnahr uchun qayta Erondan yordam olishga Boburning o'zida istak topilmagan bo'lishi mumkin. Sababi, birinchi bor qizil-boshlardan olingan yordam, sunniy mazhabidagi Movarounnahr aholisining nazariida katta diniy xatolik ta'bir joiz bo'lsa, sunniylikdan chiqish deya qabul qilingan edi (Ayni vaqtda, G'ijduvon mag'lubiyatiga xalqning qo'llovi bo'lganligi ham katta ta'sir etgan edi). Shu bois xalq Bobur boshchiligidagi shia boshqaruvidan ko'ra, sunniy boshqaruvdagi dastliklarni a'lo deb bildi. Qolaversa, bu vaqtlarda Eronning o'zi ham qiyin ahvolda edi, boisi 1514-yili Usmoniy turklar sultoni Sulton Salim I Ismoil Safaviyni o'zaro jangda mag'lubiyatga uchratadiki, natijada Safaviylar davlati ham murakkab vaziyatni boshidan o'tkazar edi. Bundan tashqari, Bobur bildiradiki, agar vaziyatni shu holicha qoldirsiz, vaqti kelib, o'zining g'arbiy qo'shnisi Eron Safaviylari baribir Kobul tuprog'idan umidvor bo'lishadi.

To'rtinchidan, o'sha vaqtlarda Hindistonda feodal

So'z tarixi — o'z tariximiz

O'zbekiston nega tarixini qayta ko'rib chiqishi lozim?

Yaqinda Oksfordda bo'lib o'tgan seminarda siyosiy tarixchi Sergey Medvedev "xotira urushlari" haqida ma'ruza o'qidi. Bu ma'ruza tezislari ayrim rus saytlarida "Россия предстоит осознать ужасы своей истории" ("Rossiya tarixining dahshatlarini anglashi lozim") nomi ostida e'lon qilindi. Shu ma'ruzani o'qib, o'zbek tarixchiligidagi muammolar haqida o'ylab qoldim.

Tarix — faqat tarix darsi degani emas

Tarix deganda odamlar ko'proq maktabda, qisman universitetda o'tiladigan "rasmiy", "milliy" tarixni tushunadi. Aslida tarix — anchayin keng, biroz mavhum tushuncha; uning har xil ko'rinishlari bor.

Avvalo, har bir insonning individual tarixi bor: qachon, qayerdan, kimdan kelib chiqqan, bugun kim? Har bir davlatda "rasmiy" tarix kodifikatsiya qilinadiki, u barcha individual tarixlarni birlashtirishga, bitta jamoa uchun umumiy bo'lgan tarixni ko'rsatib berishga da'vogarlik qiladi.

Bu nima uchun kerak?

Jamiyatni jipslashtirish uchun. Bitta davlatda yashayotgan hamma og'a-ini ekanini, umumiy tarixga ega ekanini ko'rsatish uchun.

Qolaversa, tarix orqali bugungi g'oyalarga yoshlarga singdiriladi. O'tmish ham bugungidek bo'lgani, olis tarixdagi bobolar ham bugungidek fikrlagan qistirib o'tiladi. "Pushkin tirik bo'lganida, u albatta Putinni qo'llab-quvvatlar" qabilidagi g'oya yetkaziladi.

Bu yaxshimi, yomonmi?

Bir qarashda yaxshiday. Lekin, Soljenitsin aytganidek, "uslublar qabihligi natijalar qabihligida meva beradi". "Milliy" tarixga qator e'tirozlar tug'iladi:

— millatni birlashtirish uchun doim ham haqiqat yozilyaptimi? Yoki faktlar soxtalashtirilyaptimi, o'tmish qahramonlashtirilyapti?

— soxtalashtirilgan o'tmish asosiga milliy birdamlikni qurishning axloqiy javobgarligi qanday bo'ladi?

— soxtaliklar, berkitilgan faktlar chiqib kelsa, "birlashtirilgan" millat yana sochilib ketmaydi? Odamlarda "yolg'onga ishongan ekanimiz" degan hafsalasizlik vujudga kelmaydimi?

— o'tmish asosiga bugun qurilsa, odamlar bugungi kun tashvishlaridan uzoqlashib ketmaydimi? "Bugun" "kecha"dan muhimroq-ku.

Masalaning yana bir jihati bor. Bir davlatning "milliy" tarixi boshqa davlatning "milliy" tarixiga mos kelmasligi mumkin. Kesishuv nuqtalarida "xotira urushlari" yuzaga keladi.

"Xotira urushlari" nima?

Uzoq o'tmishdagi voqealar tufayli bugungi siyosatda yuzaga kelayotgan diplomatik mojarolar, davlatlar o'rtasidagi ziddiyatlar "xotira urushlari" deb ataladi.

Ayniqsa, yangi tarix voqealari bugungi kunga kuchli ta'sir o'tkazadi. Negaki, u voqealarni ko'rgan odamlar hali ham tirik, yoki ularning avlodlari eski xotiralarni saqlab kelmoqda. Shu bois yaqin o'tmish haqida gap ketganda, qizg'in bahslar avj oladi. Bugungi odam bobosi qandaydir yolg'on mafkuraga ishonib yashaganini qabul qilolmaydi, albatta

bobosini oqlashga harakat qiladi. Qolaversa, bugungi millatlar va davlatlar oxirgi 200–300 yil ichida shakllangan. Shu vaqt oraliqida biror voqeaga yopishib olib, butun boshli millatlar va davlatlarning mavjudligini, legitimligini shubha ostiga olish mumkin. Shuning uchun yaqin o'tmish haqida gap ketganda har qanday davlat siyosiy kontekst ko'radi. To'g'ri-da, kimdir "100 yil oldin noto'g'ri bir qaror bilan davlatning chegaralari belgilab berilgan ekan, sen legitim davlat emassan, seni tarqatib yuborish kerak", desa, bu kimga yoqadi?

Ikkinchi jahon urushidan so'ng "milliy" tarixlar qayta ko'rib chiqilgan edi. Bu borada Germaniya misoli diqqatga sazovor: nemislarni ommaviy ravishda kinoteatrlarga majburiy olib borib, fashistlarning jinoyatlari haqidagi filmlarni qo'yib berishgan. So'ng ularni qotilliklar ro'y bergan lagerlarga olib borishgan. Shu tariqa nemislarning yangi avlodi kollektiv aybdorlik hissi bilan o'sib-ulg'aydi. Hatto bugun ham ular Ikkinchi jahon urushida sodir etgan jinoyatlari uchun aybdorlik his qilib yashaydi, uni yuvishga harakat qiladi. Germaniya Yaqin Sharqdan milliondan ortiq qochqin qabul qilishga sabab ham shu: bir paytlar axloqsizligi, vahshiyliyi bois insoniyatni halokat yoqasiga olib kelib qo'yan millat bugun axloqiy davlat qurishga intilmoqda.

Germaniya xolokostdagi, Ikkinchi jahon urushidagi aybini e'tirof etib, qayta tiklandi, yangi millat qurdi, nemislarning psixologik holatini yaxshiladi. Bu yo'ldan boshqa postimperial millatlar borishga urinmoqda: amerikaliklar qora tanlilar oldidagi aybini yuvish bilan ovora, Angliya, Fransiya, Italiya, Ispaniya kolonial jinoyatlarini o'rganmoqda.

Lekin Sharqda vaziyat boshqacharoq. Turkiya genotsid masalasi tufayli Armaniston bilan kelisholmayapti va Yevropa Ittifoqiga qo'shila olmayapti; Rossiya Ikkinchi jahon urushidagi ahamiyati atrofiga yangi o'zligini qurib, bu urushga munosabatga qarab do'st-dushmani ajratmoqchi: Ikkinchi jahon urushini Germaniya boshlaganini, SSSR buyuk g'alaba qozonganini e'tirof etsang, do'stan, Ikkinchi jahon urushi boshlanishida SSSRning ham qo'li borligini aytasang, Stalin jinoyatlarini eslasang, dushman. Hatto rivojlangan Yaponiya ham 40-yillarda Xitoyda uyushtirgan qirg'inlarini tan olmaydi.

Ayni paytda G'arbda ham vaziyat o'zgarimoqda: multikulturalizm siyosati omadsizlikka yuz tutdi, muhojirlar mahalliy xalqlarga qo'shilib keta olmadi, musulmon diasporasi bilan ixtilof avj olsa o'lyaptiki, tinmayapti. Buning natijasida Yevropada va AQShda konservatorlar bosh ko'tarmoqda. Ular yana tarixni qayta ko'rib chiqishga, unutilgan "qahramon"larni tiklashga urinmoqda. Ispaniyada shu yillarda fashist diktatori Franko tarafdorlari ko'payib qolganini, Fransiyaada Marin le Pen boshchiligidagi o'ng millatchilar katta kuchga aylanganini, Skandinaviyada yana millatchilik bosh ko'targanini, AQShda konservatorlar nomzodi Tramp hokimiyat tepasiga kelganini aytib o'tish mumkin.

Dunyoda mana shunday "xotira urushlari" girdobida qolgan bir paytda O'zbekistonda nima bo'lyapti?

O'zbek tarixi qachon yozilgan?

Sovet davrida. Aynan sovet davrida bugungi O'zbekiston chegaralari chizib berildi, yangi o'zbek sotsialistik millatining "milliy" tarixi kodifikatsiya qilindi. Bu tarixning asosiy paradigmatlari:

— o'zbeklar — mahalliy eroniy qabilalarning to'g'ridan-to'g'ridan avlodlari, ular bu yerda 3 ming yildan beri yashaydi, ular mintaqadagi eng qadimgi davlatlar buniyodkoridir;

— ko'chmanchi o'zbeklar bugungi o'zbeklarga deyarli hech qanday ta'sir o'tkazmagan, o'z nomini bergan xolos;

— o'zbek xalqi buyuk o'troq madaniyat yaratgan, yovuz kelgindilar hamisha ularning rivojlangan yerlarini bosib olishga uringan; o'zbek xalqi hayoti ozodlik yo'lidagi tinimsiz urush va qo'zg'olonlarda o'tgan;

— xonlar, sultonlar, aristokratlar hamisha oddiy xalqni ezib kelgan; o'zbeklar na faqat chet ellik bosqinchilarga, balki mahalliy ekspluatatorlarga qarshi ham sinfiy kurash olib borgan;

— vaziyat ayniqsa xonliklar davrida yomon bo'lgan (ular SSSRning jonli, to'g'ridan to'g'ri dushmani bo'lgani uchun ayniqsa o'ta qora bo'yoqlarda ko'rsatilgan);

— faqat sovet davriga kelibgina o'zbeklar chinakamiga ozodlikka erishdi, millat o'laroq rivojlandi.

Bugun ahvol qanaqa?

Bugungi o'zbek tarixi — sovet tarixining aynan o'zi. Bir-ikkita kichik o'zgarishni aytmasa. Mana o'zgarigan paradigmatlar:

— xonlar, sultonlar yomon bo'lgan, lekin Temur va Temuriylar yaxshi bo'lgan;

— sovet davri ham aslida o'zbeklar ozodlikka chiqqan davr emasdi, balki Rossiya imperiyasi mustamlakachiligining davomi edi;

— faqat mustaqillik davriga kelibgina o'zbeklar chinakamiga ozodlikka erishdi, millat o'laroq rivojlandi.

"Xotira urushlari" holatida bu paradigmatlar qanchalik o'rinni?

O'zbekiston SSR tarixi SSSR realligiga va mafkurasiga moslab yozilgan edi. Bugungi kunda bu tarix na yosh avlodni milliy mafkura ta'sirida tarbiyalay oladi, na o'tmishning obyektiv kartinasini ko'rsata oladi. Aksincha, ko'plab tutash nuqtalar qo'shni davlatlar bilan "xotira urushlari"ni keltirib chiqarishi mumkin.

Boz ustiga, sovet davrida o'zbek tarixiga juda selektiv munosabatda bo'lingan: kerakli tarixiy shaxslar, davrlar va voqealar saralab olingan, ular asosiga butun tarix qurilgan. Aslida muhim tarixiy rol o'ynagan ko'plab shaxslar, xalqlar, davrlar unutilgan.

Unutilganlarni eslash, ularga haqqoniy baho berish o'zbek tarixchiligining axloqiy burchidir. Eng kamida tarix deideologizatsiyasi (mafkuradan xoli qilish), degeroizatsiyasi (qahramonlashtirishni to'xtatish), o'tmishda buyuk hodisotlar qatorida qora sahifalar ham borligini tan olish lozim. Qayta ko'rib chiqilgan tarix odamlarning o'tmishiga va buguniga munosabatini o'zgartirib yuboradi. Mana shu impuls o'zbek jamiyatidagi tub o'zgarishlarga, qayta tiklanishga sabab bo'lishi mumkin. Germaniya buning misoli.

Eldor ASANOV

SO'Z TARKIBI O'QUV LUG'ATI

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda).

B

be/poyon/lik
be/pul
be/rahm/lik
ber/il/uv/chan/lik
berk/ik
be/ruxsat
be/sabab
be/sabr/lik
be/saranjom/lik
be/sarishta/lik
be/soqol
be/so'ro/q
be/tajriba
be/tayin/lik
be/takalluf/lik
be/tamiz/lik
be/ta'rif/lik
be/tartib/lik
be/tahluka
be/tergo/v (be/terga/v)
be/tin/im
bet/la/moq
be/tob/lik
beton/la/moq
be/tob/lan/moq
be/toqat/lan/moq
be/toqat/lik
bet/siz/lik
be/tutun
be/to'xto/v
be/farzat/lik
be/farosat/lik
be/farq/lik
be/fahm/lik
be/fursat
be/xabar/lik
be/xavotir/lik
be/xatar/lik
be/chiq/im
be/chora/parvar
be/chora/chilik
be/shak
be/sharm/lik
be/shafqat/lik
beshburchak/li
be/shikast
be/e'tibor
be/yuz
be/yaro/q (be/yara/q)
be/o'lcho/v (be/o'lcha/v)
be/o'xsho/v (be/o'xsha/v)
be/qaror/lik
be/qiyos
be/quvvat/lik
be/g'ayrat
be/g'alva
be/g'am/lik
be/g'araz/lik
be/g'ubor/lik
be/had
be/hayo/lik
be/halovat
be/hafsala/lik
be/beh/la/moq
be/hikmat
be/hisob
be/hol

(Davomi bor.)

Tuzuvchilar:
Baxtiyor MENGLIYEV,
Bashorat BAHRIDDINOVA.

Boburshunoslik ilmidagi chin va yolg'onlar

Ayrim buyuklarning ilmdagi qismati juda ajoyib bo'ladi. Bobur Andijonda tug'ilib o'sdi. Boburshunoslik esa garchi O'zbekistonda XXI asrning dastlabki o'n yilligida uzil-kesil shakllangan bo'lsa-da, o'zga mintaqalarda, ko'proq G'arb mamlakatlarida XVI-XIX asrlarda rivojlandi.

Uning bo'lasini — xolavachasi tanikli o'rta asr tarixchisi Muhammad Haydar mirzo Ayoziy hozirgi Tojikistonning O'ratepa (Istravshan) shahrida dunyoga keldi. Hayotining o'n to'qqiz yili Uyg'uristonda, o'n sakkiz yili esa Hindistonda kechdi. U hozir "Qozog' tarixshunosligining Gerodotidir" (Abdusattor Derbisi, filologiya fanlari doktori, professor). Qozog'iston Respublikasida Muhammad Haydar mirzo nomidagi universitet (Toroj shahrida), ko'cha va maktablar, Muhammad Haydar mirzo hayoti va ijodini o'rganish markazi (Torojda) mavjud. Qozog'istonda Muhammad Haydar mirzo haqida yuzga yaqin monografiya va risolalar, mingga yaqin maqola yozilgan.

Bu hodisalar Bobur va Muhammad Haydar mirzo baxti va saodatidir. Ulug'larni har bir xalq olimlari ulug'lab kitoblar yozar ekanlar, unga tan berib, o'zlashtirar ekanlar qandilari ursori!

Biz o'zbeklar ham Muhammad Haydar mirzoning "Tarixi Rashidiy" asarini rus tiliga birinchi bo'lib o'girdik (1996-yil). "Jahonoma" dostonini birinchi marta nashr ettirdik (1999). O'zbek tiliga ham o'girdik (2010). Uyg'ur tilida ham nashr ettirdik (2011). Bobur nomli xalqaro jamoat fondi "Muhammad Haydar mirzoning jahon madaniyati tarixidagi o'rni" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o'tkazdi va unda o'ndan ziyod mamlakatlardan olimlar qatnashdi. Anjumanga taqdim etilgan maqola va ma'ruzalar to'plami o'zbek va ingliz tilida nashr etildi.

Biz boburshunoslikdagi haqiqat va yolg'on ma'lumotlarga ilmiy jamoatchilik diqqatini jalb etmoqchimiz. Avvalo, "Boburnoma"dagi ayrim matnlarga aniqlik kiritishga harakat qilamiz.

Boburning mashhur toshbitigi qachon yozilgan?

"Boburnoma"da muallifning o'zi qayd etgan toshbitik yozilishi tarixi hijriy 906-yil voqealarida berilgan. Matn tabdili:

Obburdondan quyiroqda bir chashma bo'lib, bu chashma tepasida bir mozor turibdi. Ushbu chashmadan yuqorisi Maschoga qarashli. Quyisi Palg'arga taalluqlidir. Ushbu chashma boshida uning yoqasidagi toshga bu uch baytini o'yib yozdim:

*Shunidamki, Jamshedi farruxirishit,
Ba sarchashmaye bar sane navisht:
"Bar in chashma chun mo*

base dam zadand,

Birafstand to chashm barham zadand.

Giriftem olam bo mardiyu zo'r,

Va lekin naburdem bo xud ba go'r".

(Mazmuni:

Eshitganim borki, Jamshiddek nomdor

Bosh buloq toshiga yozdirdi yodgor:

"Bu buloq boshida ko'plard tin oldi,

Ko'z yumib-ochguncha yitdi —

yo'qoldi.

Mardlig-u zo'rlik-la olamni oldik,

Lekin qabristonga quruq yo'l soldik").

Bu tog'li maskanda toshga o'yib bayt va nasrlar bitish odatidir.

Ushbu ma'lumot milodiy 1502-yilga to'g'ri keladi. Sa'diy Sheroziyning "Bo'ston" asaridan olingan mazkur uch baytning oldingi ikki bayti Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarining Amir Temurning Ulug' Tog'dagi toshbitigi haqidagi ma'lumotlar sahifasida keltirilganini tarixchilar yaxshi biladi. Biz bu gapni Sohibqiron Amir Temur va Bobur toshbitiklaridagi aloqadorlikka ishora qilish uchun ataylab eslatdik, xolos.

Bobur nomli xalqaro ilmiy ekspeditsiya 2009-yilning sentabr-oktabr oylarida Qirg'iziston, Tojikiston, Afg'oniston yo'nalishidagi safari payti Obburdondan kenda bo'lib, Zahiriddin Muhammad Bobur qadamjolari va uning toshbitiklarini izlash, topish va o'rganish bilan mashg'ul bo'ldi. Jumladan, Obburdondan Shamitich qishlog'ining "Durus" qabristonidan Boburning toshdagi dastxatini topishga ham muvaffaq bo'lishdi. Toshbitikdagi Bobur yozuvlari:

Kofiro, mardumshikoro,

yak zamon ohistatar,

Ki ohui bechoraro tobi tiri

turxon nest. 907

Va kotibning qaydi:

In kitoboi mirat Boburxon.

Xalladalloh mulkahu va sultonahu.

Mazmuni:

"Ey kofir, ey odam ovchisi! Bir lahza shoshma. Sho'rlik ohu turk o'qiga bardosh berolmaydi.

Bu amirim Boburxonning bitiklaridir. Uning mamlakati va sultonligini Alloh abadiy qilsin".

Ekspeditsiya a'zolarining ko'p izlanishlaridan so'ng Boburga taalluqli yana to'rta toshbitik 1953-yilda tarixchi Ahror Muxtorov va uning akasi Mirhaydar tomonidan poytaxtga olib ketilgan haqida ma'lumot olib, Dushanbedagi Tojikiston xalqlari qadimiy san'ati muzeyi(arxeologiya muzeyi)dagi bitiktoshlarni o'rganishga muvaffaq bo'ldilar.

Biz uchun muhimi mashhur Bobur toshbitigi edi. Uni turli tomonlardan rasimga oldik va o'rganib, hayratda qoldik. Toshbitik ostidagi tarixiy sana "Boburnoma"dagidek 907 (1502)-yil emas, balki 917(1512)-yil edi!

Ushbu tarixiy sanadagi farq ko'p narsalarni qayta ko'rib chiqishimizni taqozo etadi: *birinchidan:* Bobur ko'li bilan yozilgan toshdagi ma'lumot kitobdagidan o'n yil farq qilmoqda. Qaysi biri haqiqat? Kitobdagi sanami yoki toshdagisi? Har holda, mantiq va haqiqat tosh tarixiy sanasiga yon bosadi. Chunki toshda Bobur dastxati, kitob esa boshqa kotib dastxatidir.

ikkinchidan: ko'p boburshunoslar bilib bilmay "Boburnoma"ni Bobur taxtga chiqqan yilidan boshlab kundalik tarzida yozib borgan, degan noto'g'ri fikrlarini ilmiy ma'lumot sifatida yozganlar. Buni ushbu toshdagi sana rad etmoqda. Chunki "Boburnoma" 1525-yildan keyin yozayotgan asarida toshbitik sanasini ko'rsatishda o'n

yilga yangilishgan. Balki "Boburnoma" yozilayotgan vaqtidagi kuchli jala payti shamol uning varaqlarini to'zgitganda sahifalar nuqsonli yig'ilgandir...

"Boburnoma"ning Hindistonda yozilganiga yana bir aniq dalil borki, asarning "Farg'ona" qismida ham ko'plab masofa va vaqt tushunchalari istilohlari hindchadir...

Bobur Muhammad Haydarni qayerga jo'natgan?

Endi "Boburnoma"dagi yana bir ma'lumotni eslaylik. Bobur Muhammad Haydar mirzoni Kobulga Qal'ayi Zafardan chaqirtirib olib, uch-to'rt yil tarbiyalaydi. Samarqandni uchinchi marta olganida Boburning jiyani, Haydar mirzoning pochchasi Sulton Saidxon iltimosiga ko'ra xolavachasi Muhammad Haydar mirzoni (agar asarga ishonasak) Koshg'arga jo'natadi.

Aslida-chi?

1512-yilda Said Muhammad boshchiligidagi mo'g'ullar Andijondan dasht o'zbeklari — shayboniylarni quvib, Boburni Andijonga taklif qiladi. Bobur Andijonni Sulton Saidxonga bag'ishlab, xon qilib yuborgan edi... Ubaydullaxon Turkistonga qochib kelganida uning xotini Habiba Sulton xonim (Muhammad Haydarning onasi) ko'chada qolgan edi. Said Muhammad (xonimning amakisi) uni topib, Andijonga olib borib, Sulton Saidxonga nikohlab bergan edi.

Habiba Sulton xonimning iltimosiga ko'ra Sulton Saidxon Muhammad Haydarni Andijonga chaqirtirib olgan edi.

Ana shu fakt ham Boburning Muhammad Haydarni "Koshg'arga jo'natgani" haqidagi ma'lumotning haqiqatga to'g'ri kelmasligi hamda "Boburnoma"ning kundalik holida har yili yozilmagani, balki Hindistonda yozilganining dalilidir. Chunki asar Haydar mirzo jo'nab ketganidan 14 yil keyin yozilgan...


Chunki Muhammad Haydar Samarqanddan Andijonga kelib (1512), ikki yildan so'ng Sulton Saidxon bilan 1514-yilda Koshg'arga harbiy yurishga jo'nagan edi...

Yangi shahri O'tromi?

Endi kotiblar aybi bilan sodir etilgan ilmiy va faktik nuqsonlarni mushohada etamiz. "Boburnoma"ning ilmda o'rganilgan va dunyoning 24 tiliga tarjima qilingan nusxalarining barchasida Yangi shahri O'tror sifatida qayd etilgan. Asar ilmiy matnida ham (Eyji Mano), O'zbekistondagi Porso Shamsiyev nashrlari va tabdillarida ham (V.Rahmonov va K.Mullaxo'jayeva), ruscha tarjimasida ham (M.A. Salve)...

Gap shundaki, Muhammad Haydar mirzoning "Tarixi Rashidiy" asarida Yangi shahri Toroz shahrining keyingi nomi ekanligi aniq aytilgan. Bobur kichik xon — Sulton Ahmadxonni Saryomda kutib olgan ekan, uning yonidagi Yangi shahri(Toroz)ni bilmasligi mumkin emas. Va "Boburnoma" nusxalaridagi yuqoridagi ma'lumotlarning xatoligi kotiblar tufaylidir.

Bu haqiqatni torozliklar va barcha tarixchilar yaxshi biladi. Biroq birorta "Boburnoma" qo'lyozmalari va tarjimalarida biz bu haqiqatni bilolmagan edik. 2017-yili Bobur nomli xalqaro jamoat fondi



"Zahiriddin Muhammad Boburning jahon madaniyati tarixida tutgan o'rni" mavzusida xalqaro anjuman o'tkazdi va unda o'ndan ortiq xorijiy mamlakatlardan olimlar qatnashdi. Fond rayosati taklifiga ko'ra, Bokudagi Bobur xalqaro jamoat fondi bo'lismi mudiri, professor Almas xonim Binnatova fondga AQShning Baltimor shtatidagi Baltimor shahrining Volter muzeyida saqlanayotgan "Boburnoma"ning bir nusxasini taqdim etdi.

Fond rayosati bu nusxa bilan tanishdi. Juda ko'plab "Boburnoma"dagi kotiblar nuqsonlarini bartaraf etish mumkinligini shu qo'lyozma ko'rsatdi. Chunchonchi, asarning Baltimor nusxasida "Boburnoma"dagi "O'tror" so'zi o'rnida Yangi shahri izohida "Torozkent" deb aniq yozib qo'yilgan.

Samarqandning ikkinchi marta olinishi kimning ruhiy homiyligida bo'lgan?

"Boburnoma"ning ilmiy matni va nashrlari hamda tarjimalarida Boburning Samarqandni ikkinchi marta olishi Xoja Ubaydulloh Ahromning ruhiy madadi tufayli sodir bo'lgani qayd etilgan:

To'qqiz yuz oltinchi (1500-1501) yil voqealari

No'yon ko'kaldosh dediki: "O'n to'rt kunda olg'aymiz". Tangri to'g'ri keltirdi: roppa-rosa 14 kundayoq Samarqandni oldik.

O'sha fursatda ajoyib tush ko'rdim. Tush ko'rsam, hazrati Xoja Ubaydulloh kelmishlar, men istiqbollariga chiqibman. Xoja kelib o'tirdilar. Xojaning oldilariga biroz odmiroq dasturxon solishibdi. Bu sababdan hazratga biroz malol kelganmish. Mullo Bobo men sari boqib ishora qiladi. Men ham imo-ishora bilan dedimki, bu ishdan mening aybim yo'q. Dasturxon soluvchi xato qilindi. Xoja buni fahmlab bu uzrni qabul qildilar. O'rinaridan turdilar. Uzatib chiqdim. Ushbu uyning dahlizida o'ng qo'lmdan yo chap qo'lmdan tutib shunday ko'tardilarki, bir oyog'im yerdan uzildi. Turkiy — o'zbek tilida dedilarki: "Shayx Muslihidin berdi". O'sha bir necha kundayoq Samarqandni oldim.

"Boburnoma"ning Baltimor nusxasida esa Xoja Ubaydulloh Ahromning so'zlari quyidagichadir:

— Shayx Muslihidin berdi.

Ma'lumki, bu yurishga Bobur Xo'janddan jo'nagan va u shahardagi mashhur avliyo — Shayx Muslihidin maqbarasi hozir ham avvalgidek mashhurdir. Boburning tushiga ko'ra Samarqandning ikkinchi marta olinishida Shayx Muslihidin Xo'jandiy ruhoniyati madadkor bo'lgan ekan...

Vahob RAHMONOV,
O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi

Biologiyadan testlar

1. Hayotiy shakli ko'p yillik o't bo'lgan, yonbargchali o'simliklarni belgilang.

1) o'tloq sebgasi; 2) xarduma; 3) yantoq; 4) na'matak; 5) terakbargli liftok; 6) qulupnay.

A) 1, 3, 6; B) 2, 5, 6;
C) 1, 4, 5; D) 1, 2, 4.

2. Baobab daraxtiga mos kelmaydigan sistematik birlikni toping.

A) magnoliyasimon;
B) magnoliyatoifa;
C) ochiq urug'li;
D) gulxayridosh.

3. Quyidagi nomi keltirilgan o'simliklarni ahamiyatiga ko'ra juftlab ko'rsating.

1) dorivor gulxayri;
2) cherkez;
3) sachratqi;
4) bosh piyoz;
5) qora ituzum;
6) na'matak.

a) oshqozon-ichak kasalliklarini davolash;
b) mevasi "C" darmondorisiga boy;
c) fitosidlarga boy;
d) yo'talga qarshi ishlatiladi;
e) qon bosimini tushiradi;
f) avitaminozni davolashda foydalaniladi.

A) 1-a; 2-f; 3-d; 4-b; 5-e; 6-c;
B) 1-d; 2-e; 3-a; 4-c; 5-b; 6-f;
C) 1-e; 2-d; 3-a; 4-c; 5-f; 6-b;
D) 1-d; 2-e; 3-f; 4-b; 5-a; 6-c.

4. Ko'plab meva va urug' beradigan, urug'i o'txo'r hayvonlarning oziqlanish organlarida hazm bo'lmaydigan o'simlikka tegishli xususiyatni toping.

A) fototrof organizm hisoblanadi;
B) Magnoliyasimonlarga mansub, ildizpoyali, ko'p yillik o'simlik;
C) urug'i suv o'tkazmaydigan qo-biqqa ega;
D) barglari metamorfozga uchrab, so'rg'ich hosil qilgan.

5. Quyidagi keltirilgan organizmlardan qaysilarida bachadon mavjud?

1) giyena; 2) vixuxol; 3) xo'roz; 4) yelik; 5) qoramol tasmasimon chuvalchangi; 6) aktiniya; 7) cho'chqa tasmasimon chuvalchangi; 8) opossom; 9) o'rdakburun; 10) yexidna.
A) 4, 7, 10; B) 6, 8, 10;
C) 1, 3, 9; D) 1, 2, 5.

6. Laylaklarga xos to'g'ri ma'lumotlarni toping.

1) muhofaza qilinmaydi; 2) Osiyo laylaklari Afrikada qishlaydi; 3) oyoqlari va tumshug'i uzun; 4) baqa, sichqon va kaltakesaklar bilan oziqlanadi; 5) tuxumdan chiqqan jo'jasining ko'zi yumuq, quloq teshigi yopiq bo'ladi; 6) soni kamayib ketgan; 7) Yevropa laylaklari Shimoliy Hindistonda qishlaydi; 8) foydali qush.

A) 3, 4, 6, 8; B) 1, 2, 4, 7;

C) 2, 3, 5, 8; D) 1, 2, 3, 7.

7. Sun'iy (a) va tabiiy (b) partenogenez kuzatiladigan umurtqali hayvonlarni juftlab ko'rsating.

1) gulmoy; 2) tustovuq; 3) yonsuzar; 4) biy; 5) tovushqon; 6) so'na.

A) a-3, 4, 5; b-2;
B) a-1; b-2;
C) a-2, 5; b-1, 4, 6;
D) a-1, 6; b-3.

8. Cho'l toshbaqasi bilan oziqlanadigan organizmning turkumidan yuqori sistematik birligi bir xil bo'lgan hayvonlar keltirilgan javobni toping.

A) kanna, yelik, koala;
B) kuropatka, kivi, emu;
C) gornastoy, yelik, kabarga;
D) iguana, los, vixuxol.

9. Quyidagi keltirilgan organizmlarning qaysilarida ♀ va ♂ belgilari bir organizmda rivojlanadi?

1) makkajo'xori; 2) Sharq sauri; 3) askarida; 4) jigar qurti; 5) Turkiston ismolog'i; 6) qarag'ay; 7) bolalar gijjasi; 8) bitiniya; 9) exinokok; 10) dafniya.
A) 2, 3, 7, 10; B) 1, 5, 6, 8;
C) 4, 6, 8, 9; D) 2, 3, 9, 10.

10. Bronza qo'ng'izining qaysi og'iz organlari bir juftdan paypaslagichlar bilan ta'minlangan?

A) yuqori jag' va yuqori lab;
B) yuqori va pastki jag';
C) pastki lab va pastki jag';
D) yuqori va pastki lab.

11. Neyroglia hujayrasiga xos bo'lgan xususiyatlarini aniqlang.

1) orqa miya va bosh miya nerv hujayralari atrofta joylashgan; 2) nerv tugunlari atrofta joylashgan; 3) uzun akson va kalta dendrit o'simtasiga ega; 4) nerv tolalari deyarli bir xil uzunlikda; 5) o'simtalari tananing barcha to'qima, organlariga boradi; 6) bir hujayrani atrofta boshqa hujayralar bilan bog'lab turadi; 7) nerv hujayralarini oziqlantiradi.

A) 1, 3, 5, 7; B) 2, 4, 6;
C) 1, 4, 6, 7; D) 1, 4, 7.

12. Orqa miyaning yuqori uchi boshlanadigan (1), konus shaklida tugaydigan (2), ip shaklida boshlanadigan (3), ipning uchi tugaydigan (4) joyini ko'rsating.

a) 1-bo'yin umurtqasi; b) 3-bo'yin umurtqasi; c) 5-ko'krak umurtqasi; d) 1-2 bel umurtqasi; e) 3-bel umurtqasi; f) 3-dumg'aza umurtqasi; g) umurtqa pog'onasining dum qismi.

A) 1-a; 2-c; 3-d; 4-g;
B) 1-b; 2-e; 3-f; 4-g;
C) 1-a; 2-d; 3-d; 4-g;
D) 1-a; 2-d; 3-e; 4-f.

13. Ko'krak qafasini tashkil qiladigan suyaklarning nechtasini kalta g'ovak (a) va uzun g'ovak (b) suyaklar tashkil etadi?

A) a-24; b-13;

B) a-12; b-25;

C) a-12; b-27;

D) a-26; b-13.

14. Enterit yuzaga keladigan a'zoga tegishli javobni belgilang.

A) asosan, suv va mineral tuzlar so'riladi;
B) jigarda ishlangan o't suyuqligi doimo quyilib turadi;
C) askarida parazitlik qiladi;
D) ovqat moddalari pepsin ta'siriga uchraydi.

15. Sog'lom qizning jinsiy hujayrasidagi jinsiy xromosomal (a), teri hujayrasidagi autosomal (b), voyaga yetmagan eritrotsitlardagi autosomal (c), nerv hujayrasidagi jinsiy xromosomal (d) va jinsiy xromosomasidagi autosomal (e) sonini ko'rsating.

A) a-1; b-44; c-22; d-2; e-22;
B) a-1; b-44; c-44; d-2; e-22;
C) a-2; b-46; c-44; d-1; e-23;
D) a-1; b-23; c-0; d-22; e-44.

16. Agar ayolning urug'langan tuxum hujayrasida 44 ta autosoma va bitta Y xromosoma bo'lsa, ya'ni X xromosoma yetishmasligi qaysi tanlanishga misol bo'ladi (a) va agar ayolda 44 ta autosoma va bitta X xromosoma bo'lsa, qaysi kasallik (b) vujudga keladi?

A) a-dizruptiv tanlanish; b-Sher-shevskiy-terner sindromi;
B) a-stabillashtiruvchi tanlanish; b-Klaynfelter sindromi;
C) a-harakatlantiruvchi tanlanish; b-Klaynfelter sindromi;
D) a-stabillashtiruvchi tanlanish; b-Sher-shevskiy-terner sindromi.

17. Sigirquyruq hujayrasining quyidagi tuzilmalarida qanday jaryonlar ro'y berishini juftlab ko'rsating.

1) uglevod sintezi; 2) transkripsiya; 3) ATF sintezi; 4) translyatsiya; 5) achish.

a) mitoxondriya; b) sitoplazma; c) xloroplast; d) silliq endoplazmatik to'r; e) ribosoma; f) yadro.

A) 1-c; 2-f; 3-a; 4-b; 5-a, c;
B) 1-d; 2-b; 3-c; 4-f; 5-a;
C) 1-c; d; 2-f; 3-a, c; 4-e; 5-b;
D) 1-d; 2-e; 3-a, c; 4-f; 5-b.

18. BbccX^{HX} genotipli organizmning fenotipini toping.

A) kaltabarmoqli, albinos, gemofiliya bo'yicha tashuvchi ayol;
B) qora sochli, besh barmoqli, gemofiliya bo'yicha kasal ayol;
C) polidaktiliya, malla sochli, qo'yko'z ayol;
D) to'lqinsimon sochli, sepkilli, gemofiliya bo'yicha sog'lom ayol.

19. Urg'ochi kaptarning somatik hujayrasida autosomal soni 68 ta bo'lsa hamda embrional rivojlanishning maydalanish bosqichida zigotada 3 marta ekvoterial, 4 marta meri-

dinal bo'linishi kuzatilgan bo'lsa, hosil bo'lgan blastomerlardagi jami birikish guruhlari soni va urg'ochi kaptar tuxum hujayrasida xromosomal holati qanday bo'ladi?

A) 4480; 34 ta autosoma, faqat bitta X jinsiy xromosoma;
B) 8960; 68 ta autosoma, 2 ta jinsiy xromosoma;
C) 8969; 35 ta autosoma, bitta Y xromosoma;
D) 4480; 34 ta autosoma, 1 ta X yoki Y jinsiy xromosoma.

20. Qaysi jarayonlar mitozga asoslangan?

1) ko'p hujayrali organizm to'qimalarining tuzilishi va funksional doimiyliigi;
2) zigotaning maydalanishi;
3) hayvonlarda birlamchi jinsiy hujayralarning ko'payishi;
4) avlodlar almashinuvi davomida kariotipning doimiyliigi;
5) sporalilarda kuzatiladigan shizogoniya;

6) gametogenezning uchinchi bosqichi;
7) ovogenezda yo'naltiruvchi tanachalarning hosil bo'lishi.

A) 1, 2, 3, 5; B) 1, 2, 3, 4, 5;
C) 2, 5, 6, 7; D) 1, 5, 6.

21. Simbioz gipotezasiga ko'ra, quyidagi hujayra organoidlarining kelib chiqishi haqida qanday taxminlar mavjud?

1) mitoxondriya;
2) xloroplastlar;
3) yadro; 4) endoplazmaik to'r;
5) lizosoma; 6) golji majmuasi;
7) vakuola.

a) xo'jayin hujayraning DNKsi bilan bog'liq;

b) aerob prokariotlardan;
c) mustaqil kelib chiqishga ega prokariot hujayra sifatida paydo bo'lgan;

d) yadro membranalaridan;
e) endoplazmatik to'r va golji majmuasidan.

A) 1-c, d; 2-c, d; 3-b; 4-d; 5-e; 6-d; 7-e;

B) 1-a, d; 2-b, d; 3-c; 4-a; 5-e; 6-d; 7-d;

C) 1-b, d; 2-c; 3-a; 4-d; 5-e; 6-d; 7-e;

D) 1-b, c; 2-c; 3-a; 4-d; 5-e; 6-d; 7-e.

22. Avlodida 26, 52 xromosomal turlar uchraydigan o'simlikning istiqbolli navlari keltirilgan javobni toping.

A) AN-402, Sangzor, Naman-gan-34;
B) Omad, Buxoro-9, Buxoro-102;
C) Toshkent-1, Yulduz, Samar-qand-3;
D) Toshkent-1, Toshkent-2, Toshkent-3.

(Davomi 13-betda.)

Biologiyadan testlar

(Davomi. Boshi 12-betda.)

23. Simpatrik (a) va allopatirik (b) yo'nalishidagi turlar paydo bo'lishiga misollarni ko'rsating.

1) g'o'za avlodining bo'r davrida alohidalashgani; 2) Lanao ko'lida yonzuzar qisqichbaqaning bir ajdodidan 250 ta yangi turning paydo bo'lishi; 3) Sirdaryoda yashovchi soxta kurakburun baliq turning paydo bo'lishi; 4) Baykal ko'lida boshqa joyda uchramaydigan molluskalarning ko'p bo'lishi.

- A) a-2; b-1, 3, 4;
B) a-2, 4; b-1, 3;
C) a-1, 2, 4; b-3;
D) a-3; b-1, 2, 4.

24. Neotropik biogeografik viloyatda tarqalgan, yuragi to'rt kamerali, oshqozoni ikki bo'limali hayvonlarni aniqlang.

- 1) And kondori;
2) lama vikunya;
3) iguana;
4) kazuar; 5) kolibri;
6) vixuxol; 7) nandu;
8) kabarga; 9) yelik;
10) Magellan pingvini.

- A) 2, 3, 6, 9; B) 1, 2, 4, 8, 10;
C) 3, 5, 6, 8; D) 1, 5, 7, 10.

25. Biosfera evolutsiyasining noogenez davriga xos ma'lumotlarni ko'rsating.

1) faqat biologik qonuniyatlar asosidakechadi; 2) dastlabki tirik organizmlar energiyani glikoliz natijasida to'plagan; 3) insoniyat jamiyati paydo bo'lishi bilan bog'liq; 4) inson ongi va mehnat faoliyati natijasida davom etadi; 5) birlamchi biosfera paydo bo'lgandan hozirgi zamon odami paydo bo'lguncha davom etgan; 6) 40-50 ming yil avval boshlanib hozirgacha davom etmoqda.

- A) 1, 3, 5; B) 2, 5, 6;
C) 1, 2, 5; D) 3, 4, 6.

26. Kitning (a) va otning (b) rudiment organlarini ko'rsating.

1) ikkinchi va to'rtinchi barmoqlari; 2) ko'richak o'simtasi; 3) yo'l-yo'l chiziq; 4) dumg'aza suyaklari; 5) jag' tishlari; 6) oyoq suyaklari.

- A) a-1, 3, 4; b-2; B) a-2, 5, 6; b-1, 3;
C) a-4, 6; b-1; D) a-6; b-1.

27. Fiziologik mezonga mos keladigan misol qaysi qatorda keltirilgan?

A) kanalarning tanasi yassi oval shaklida bo'lib bo'limlarga bo'linmaganligi;

B) yo'rg'a tuvaloq tuproq ustidagi chuqurchaga bir nechta tuxum qo'yib bosib yotishi;

C) ishchi arilar yuqori jag'lari yordamida mumdan katak yasashi;

D) shahar va qishloqlardagi binolarning yog'ochli qismiga turkiston termiti in qurishi.

28. DNK molekulasining bit-ta zanjirida 90 ta adenin bor. Shu DNK molekulasi fragmentidan transkripsiyalangan i-RNK zanjiridagi guaninlar soni DNK molekulasining o'sha zanjirdagi adeninlar sonidan 17 marta ko'p. RNK molekulasidagi adeninlar soni umumiy nukleotidlarning 17 foizini tashkil etadi. RNK molekulasi zanjiridagi sitozinlar soni uratsillar sonidan 3 marta ko'p. DNK molekulasidagi nukleotidlar sonini toping.

- A) 2277; B) 2727;
C) 4554; D) 4500.

29. Tovuqlar oyog'ida pat bo'lishi ikki juft noallel gen tomonidan bel-

gilanib, nokumulyativ polimer tipda irsiylanadi. Agar genotipda dominant gen bo'lsa, tovuq oyog'ida pat hosil bo'ladi. Retsessiv holda bo'lsa, pat hosil bo'lmaydi. Oyog'ida pati yo'q tovuq dominant digomozigotali patli xo'roz bilan chatishtirilganda F₁ da 120 ta, F₂ da 1120 ta jo'ja olinadi. F₂ da genotipik sinflarning necha foizi oyog'ida pat bo'ladi?

- A) 93,79 %; B) 6,25 %;
C) 75 %; D) 88,(8) %;

30. Toshko'mir davrida ro'y bergan yirik aramarfozlarni ko'rsating.

1) ko'poyoqlilar va dastlabki hashoratlari rivojlangan;

2) uchuvchi hashorat — suvaraklar, ninachilar rivojlangan;

3) sudralib yuruvchilar sinfi vakillari paydo bo'lgan;

4) ochiq urug'li o'simliklar paydo bo'lgan;

5) suvda hamda quruqlikda yashovchilarning dastlabki turlari vujudga kelgan.

- A) 1, 3; B) 2, 4;
C) 2, 4, 5; D) 1, 3, 4.

Tuzuvchi:
Ravshan MELIQO'ZIYEV.

Odam anatomiyasi fani bo'yicha DTM—2019da berilgan ayrim masalalarni yechish bo'yicha tavsiyalar

1-masala

Yoshi 20 dan oshgan sog'lom yigitning og'iz bo'shlig'ida tuzilishiga ko'ra 4 xil (A, B, S, D) tishlar mavjud bo'lib, quyidagi ma'lumotlar asosida A va D tishlarni aniqlang.

$$(A = B), (A + C)/(B - D) = 5$$

- A) A-katta oziq tish, D- qoziq tish
B) A-kurak tish, D-katta oziq tish
C) A-kurak tish, D-qoziq tish
D) A-kichik oziq tish, D-katta oziq tish

tish

Odamda jami 32 ta tish borligi ma'lum ($A + B + S + D = 32$), shundan:

- Kurak tishlar — 8 ta;
Qoziq tishlar — 4 ta;
Kichik oziq tishlar — 8 ta;
Katta oziq tishlar — 12 ta.

Agar $A = B$ bo'lsa, A-kurak tish, B-kichik oziq tish bo'lib, 8 ga teng.

$$8 + C/8 - D = 5$$

$$C + D = 16$$

$$8 + C = 40 - 5D$$

$$C + D = 16$$

$$5D + C = 32$$

$$D + C = 16$$

$$4D = 16. \quad D = 4. \quad \text{Bu yerdan } C = 12.$$

Javob: C) A-kurak tish, D-qoziq tish.

2-usul. Tishlar formulasidan foydalanamiz:

$$A + B + S + D = 8. \quad 2 + 1 + 2 + 3 = 8$$

Agar $A = B$ bo'lsa, A-kurak tish, B-kichik oziq tish bo'lib, 2-ga teng.

$$2 + C/2 - D = 5. \quad \text{Bu yerdan } C = 3.$$

$$D = 1.$$

Javob: C) A-kurak tish, D-qoziq tish

2-masala

Komilning ovqat ratsionida oqsil, yog' va uglevodning umumiy miqdori 700 g bo'lib, oqsildan ajralgan energiya 410 kkal ni tashkil etadi. Agar ovqat tarkibidagi yog'dan hosil bo'lgan energiya oqsilning parchalanishidan hosil bo'lgan energiyadan 520 kkal ga ko'p bo'lsa, ovqat tarkibida uglevod necha gramm?

- A) 500 B) 700 S) 100 D) 200

$$1. \quad \text{Oqsil} + \text{yog}' + \text{uglevod} = 700 \text{ gr}$$

2. Oqsil 410 kkal energiya hosil qilsa, uning massasini topamiz:
 $410 : 4.1 = 100 \text{ gr}$

$$3. \quad \text{Yog}' \text{ ning massasini topamiz:}$$

$$410 + 520 = 930 \text{ kkal.}$$

$$930 : 9.3 = 100 \text{ gr}$$

$$4. \quad \text{Uglevod massasini topamiz:}$$

$$700 - 100 - 100 = 500 \text{ gr}$$

Javob: A) 500

3-masala

Turning bir kunlik iste'mol qilingan uglevoddan hosil bo'lgan jami energiyasi 2050 kkal ga teng. Ozuqadagi kunlik oqsil va yog' miqdori teng bo'lib, uglevod miqdori ulardan 2,5 marta ko'p. Yog' ozuqaning necha foizini tashkil etadi (kkal da)?

- A) 12,1% B) 25%
C) 60,47% D) 27,43%

1. Uglevod massasini topamiz:

$$2050 : 4.1 = 500 \text{ gr}$$

2. $500 : 2.5 = 200 \text{ gr}$ (oqsil va yog')

$$\text{Demak, oqsil} = \text{yog}' = 100 \text{ gr}$$

3. Uglevod — $500 \text{ gr} * 4.1 = 2050$

$$\text{Oqsil} = 100 \text{ gr} * 4.1 = 410$$

$$\text{Yog}' = 100 \text{ gr} * 9.3 = 930$$

$$\text{Jami energiya} = 3390 \text{ kkal}$$

4. $3390 = 100\%$

$$930 = X = 27.43\%$$

Javob: D) 27,43%

4-masala

Odam sutka davomida iste'mol qilingan 100 g oqsilning 70 foizi hujayralardagi oqsil sinteziga sarf bo'ldi, qolgan energiya almashinuvi jarayonida to'liq oksidlandi. Iste'mol qilingan 80 g lipidning barchasi dissimilatsiya uchun sarflangan. Kun davomida iste'mol qilingan 400 g uglevodning 3 foizi glikogenga zaxiralangan va qolgan qismi energiya hosil qilish uchun sarflangan. Energiya almashinuviga jalb qilingan oqsil oksidlanishidan hosil bo'lgan energiya umumiy energiyaning necha foizini tashkil qiladi?

- A) 30,27% B) 64,73%
C) 5% D) 72,72%

$$2622 = 100\%$$

$$287 = X = 5\%$$

Javob: C) 5%

Botirjon KARIMOV,
Kosonsoy tumanidagi
4-umumta'lim maktabining
biologiya fani o'qituvchisi

Organik moddalar	Jami (gr)	Boshqa maqsadda sarflangan qismi	Oksidlangan qismi	Oksidlangan qismi hosil qilgan energiya	Jami energiya
Oqsil	100	30% — 30gr	70% — 70gr	287 kkal	2621.8 kkal
Yog'	80		80% — 80gr	744 kkal	
Uglevod	400	3% — 12gr	97% — 388gr	1590.8 kkal	

Ba'zan kelajak kelmas

Jamol SHAKAR

Oti Demet. Sariq sochlari qisqa kesilganidan quloq mamalari ko'rinadi. Old sochlari qoshlarigacha tushadi. Tekis, qisqa kesilgan sochlari yuzining ikki tomonini yarim oy kabi o'rab olgan. Yuzi bir hovuch. Burnining atrofidagi sepkillar bor. Dudoqlariga yashagan tabassum husniga husn qo'shadi. Bu yil litseyga boradi. Ijtimoiy bo'limga o'qimoqchi.

Oti Jumhur. To'q malla, to'qinli sochlari quloqlarining ustiga tushadi. O'ngga ayirgan sochining bir tutami o'ng qoshiga tegadigan tarzda taralgan. Balog'at yoshiga yetganini bildiruvchi husnbuzar yuziga soya soladi. Bo'yi uzun tol kabi. Litseyda tabiiy fanlar bo'limi uchunchi bosqichida o'qiydi. Anqara siyosatshunoslik fakultetiga o'qishga kirmoqchi. Kiradi. Demet, Anqara Til va tarix fakultetining jo'g'rofiya bo'limida o'qimoqchi. Jumhurning ortidan ikki yil so'ngra u ham Anqaraga bormoqchi. U yerda birgalikda erkin hayot kechirib sira qaytmog'chi emas. Birga ishga kirib baxtli bo'lishmog'chi. Biroq unday bo'lmaydi. Jumhur siyosatshunoslik fakultetiga o'qishga kirib, oktabrda hali Anqaraga bormasdan munosabatlari buziladi.

Iyunning boshi. O'n besh kun so'ngra o'qish tugaydi, keyin universitet imtihonlari. Imtihondan oldin nimadir bo'lib, hammasi o'stin-ustun bo'ladi. Jumhur baxtsizlikka uchrab hayotdan arazlaydi. O'zini ta'limga bag'ishlab, hech o'ylanmaydi. Demet ijtimoiy bilimlar o'qituvchisi sifatida bir qasabaga o'qituvchi etib tayinlanadi. U yerda bir tabiiy fanlar mutaxassisiga turmushga chiqadi. Ancha yillar o'tib ko'richak jarrohligi paytida narkoz ta'sirida Jumhur deb alahsiraydi, eri esa Jumhuriyat demog'chi deb o'ylab bunga e'tibor bermaydi.

Birinchi muhabbat ana shunaqa bo'ladi. Insonni ko'r qiladi, aqlini ishg'ol qiladi, sehrlab qo'yadi. Po'st bog'laman yara kabirid u. Umr bo'yi sim-sim og'riydi. Doim u bilan bo'lishni istaysan. Bo'lolmaganingda aqlingda doim u. Kunduz xayollaringda, kecha tushlaring-


da. Do'stlar bilan o'tirarkan, faqat u haqda gap ochmoqchi bo'lasan. Doim bu ko'rlik bilan, faqatgina o'zing uchun ochilgan ko'zlar bilan; faqatgina o'zing uchun porlagan bir yorug'likda yashaymiz deb hisoblaysan. U og'riqni, u sarobni bir necha yillar so'ngra anglab yetasan...

Uchunchi imtihonlar ham tugagan, faqatgina davomat muammosi bo'lganlar universitetga bormoqda edi. Ularning olti kundan davomsizlik haqqi bor edi. Ikki hafta ichida uch kundan darsdan qochadilar, o'z yolg'izliklariga chekinardilar. Zotan, maktabda darslar tugagan edi. Yo'qlama qilingandan keyin hamma maktab hovlisiga qochardi. Hovlida barcha bir-birini ko'radigan darajada yaqin o'tirishga harakat qilishardi. Do'stlari bilan gaplasharkan, chochoq boqishlar bilan ko'zlarini poylar edilar. Do'stlarini tinglamas, ma'noli-ma'noli boqishardi. Bu boqishlarda qalblari bir-biriga oqardi.

Oqshomlari ovqatdan keyin Jumhur otasining yangi olgan simsiz telefonini olib xonasiga kirardi, biroq Demetga telefon qilolmasdi. Man qilingandi. Shu sababli ham Demet telefon raqamini bermagan edi. Jumhur bu man qilishni tushunolmasdi. Telefon qo'lida, yotoqqa uzanan, ko'zlarini yumar, xayol og'ushida bo'lib o'zi bilan o'zi gaplashardi. So'nggi paytlarda Jumhurning otasi uyga juda kech keladigan bo'lgandi. Kech kelganda onasi jahli qilib baqirar, otasi jim qolardi. Jahli ustida baqirishlar Jumhuri xayolga tolgan olamdan uyg'otardi; xayolga tolgan olamdan uyg'onish yorug' bir joydan qorong'ilikka tushish bilan barobar edi. Hayot mujodalasi, ohangi, arazlar, janjallar, nafratlar, demak, edi uyg'onish.

Otasi kech kela boshlagandan beri Jumhurning nazorati ham ancha bo'shshagan edi. Ba'zan otasi koymog'chi bo'lganda onasi darhol tegishli gaplar bilan og'zini yopardi. U hali yosh, o'spirin yoshida edi. Otasi oldin o'ziga bo'ssin edi. Demet ham erkin qiz edi. Maktabdan tuman parking kimsasiz bir chetiga chekinib qo'lni qo'lga, tizzani tizzaga, yuzma-yuz o'tirib gaplashishdan faqatgina o'z ko'zlarida, o'z iforlarida g'arq bo'lganlarida kecha tushar, biroq Demet shoshilmasdi. Avvallari Jumhurga yoqib tushgan bo'lsa-da, so'ngradan butunlay es-hushini yo'qota boshlagan edi bu erkinlikdan. Ha, Demetning otasi yo'q edi, opasi va onasi bilan birga yashardi. Biroq bu qanday erkinlik edi? Nega onasidan hech gap ochmas edi? U haqida gap ochilganda, nega Demet darhol mavzuni to'xtatar va biz bizga yetarli, derdi. Ilk savol, ilk shubha kemira boshladimi insonni... Insonning o'z-o'zini kemirishi juda achinarlidir. Qahvarangli maktab formasi ostidagi oq ko'ylakning barcha tugmalari ochiq edi. Etagi to'rt barmoq tizzasining ustida edi. Demet odatda bunga e'tibor bermasdi. Atrofdagi och ko'zlar Demetga yo'nalar, Jumhur bundan bezovtalanardi. Aslida, ana shu ilk shubhadan keyin boshlangandi barchasi.

Demet ilk kun maktabga kelmagach, Jumhur uchun hayot zahar bo'ldi. Tunga qadar tor ko'chaning boshida yonib-kuyib kezdi. Gugurt qutisiga qo'rgan xatni ko'cha bolalari olib borib bermaslikka qattiq turib olishgandi. Bu ham yetmagandek, har taklif qilganida bolalar ma'noli-ma'noli qiqirlab kulishardi. Ilk kecha uzun oraliqlar bilan uydan ikki erkak chiqqan edi. Ammo Jumhur bunga ahmiyat bermadi hatto. Ikkinchi kecha uch erkak. Nimalar bo'lyapti o'zi deb o'ylasada, bunga ma'no berolmadi. Hayot shundaydir! Ba'zi narsalarga qo'l tekkizish, ba'zi narsalarni ko'rish, ba'zi narsalarni



Jamol Shakar (Tug'ilgan yili: 1962, Go'nen, Balikesir) taniqli turk yozuvchisi. Uning dastlabki hikoyasi "Oq ko'ylak" nomi bilan 1982-yilda "Guldasta" jurnalida nashr etilgan. "Apelsin bog'lari va deraza" hikoyalar to'plami arnaut tiliga, ba'zi hikoyalari esa fors, koreys va ozar tillariga o'girilgan.

Ilk hikoyalari kitobi "Ketganlar, ketganlar" nomi bilan chop etildi. "Esonlik zamonlari" asari bilan Turkiya Yozuvchilar Birligining "1999 — Hikoya" mukofotini olgan.

2012-yilda chiqqan kitoblar orasida o'tkazilgan tanlovda "Murekkep" — "Siyoh" hikoyalar to'plami Adabiyot san'at va madaniyat tadqiqotlari birlashmasi (ESKADER) va Umar Sayfiddin nomidagi mukofotni qo'lga kiritdi.

2016-yili Jamol Shakar "Dada Qo'rquq" adabiy mukofotiga loyiq ko'rildi.

eshitish, ba'zi narsalarni hidlash, ba'zi narsalarni totib ko'rishni istamaydi inson. Ko'zlari ko'r, shuuri yopiq bo'lgach, shunday bo'ladi! Birinchi muhabbat shunday yaralaydi!

Grip ekan. Tuman parkining chetida Demet boshini yelkasiga suyarkan, Jumhur o'z-o'zidan uyaldi. Ikki kun xabar ololmagach, nimalarni o'ylamadi... Inson o'zidan uyalganda ovozi titrar, qo'llarini qayerga, qanday qo'yishini, ko'zlarini qayerga tikishni bilmaydi. Ilk bor jasorat qilib, barmoqlarini Demetning sariq, tekis kesilgan sochlarida kezdirarkan, xayolga g'arq bo'lgandi: bir qirg'oqsiz dengizda yurardi, to'qinlanardi, ufq yo'q edi, sochlarda g'oyib bo'lardi, yosin hidlarini ichiga torta-torta. Inson sohilsiz bir dengizda g'oyib bo'lgach, qayta o'zini topishni istamaydi.

Maktabga qatnashlar tugab, parkda g'oyib bo'lib kech tushganda uyuq qaytilgan,

ya'ni yangi bir hayot boshlangan edi. Endi bundan keyin qanday xabarlashiladi, qayerda uchrashiladi. Jumhurning oldida universitet imtihonlari bor edi. Tayyorlanishi kerak edi. Ammo ba'zan hech kutilmaganda faqatgina boshidan o'tkazganlar bilgan u qalb og'rig'iga duchor bo'lar va yana u bilan tinardi.

Otasi kech qolgan bir oqshom edi. Imtihonlarga doim bir qalb og'rig'i bilan tayyorlanishdan toliqqan edi. Tinch turolmagan, qalb xurujining ortidan o'zini ko'chaga urgan edi. Bosh ber ko'chaning boshida yonib ado bo'lmoqda edi. Yonsa-da, baxtli edi. Bilardi, ayni damda Demet ham u haqida o'ylayotganini. Baxt bilan dardning yonma-yon ekani ni tajribadan o'tkazishardi. Endi bir-birlarining ne ahvolda ekanliklarini bilish yetardi ularga. Toki Jumhur otasi u uydan chiqqanini ko'rgunga qadar...

Turk tilidan
Javlon JOVLIYEV tarjimasida.

Tabiatni asraylik

"Ekologiya — odam faoliyatini cheklashga qaratilgan fan", degan edi taniqli rus yozuvchisi S.B.Zaligin. Insonlarning faoliyati hamisha ham egzgulikka xizmat qilavermaydi. Tabiatning yuragiga nashtardek san-chilib turgan ko'plab muamolalarning ham asl sababchisi bani odam emasmi?

Ekologiya odamning atrof-muhitga munosabatini ham belgilaydi. Vataniga munosabatini ham belgilaydi. Ekologiya muammosi faqat ishlab chiqarishgagina taalluq-

li emas. U axloq, ma'naviyat muammosi hamdir. Zotan, o'zi yashayotgan muhitni ifloslantirish tufayli, nafaqat hozirgi davrda yashayotgan avlod, balki kelajak avlod sog'lig'i va hayotiga ziyon yetkazayotgan odamni axloqli, vijdonli deydish qiyin.

Ota-bobalarimiz qadimdan "Suvni iflos qilma. Barcha jonzot undan bahra oladi",

"Pishib yetilmagan uzumni uzma. Unda ahli mo'minning naribasi bor", "Gullab turgan daraxtning shoxini sindirma", "Ko'chat ekib, bog' yarat" kabi ibratli o'gitlari bilan tabiatga bo'lgan muhabbatni ongimizga singdirib kelgan. Biz ham bu silsilani davom ettirib, kelajak avlod qalbidagi tabiatni muhofaza qilishga doir tushunchalarni kimyo, biologiya, fizika, geografiya fanlariga bog'lab o'tish bilan birga, maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlarida ham "Tabiat va

inson", "Quyosh, suv, havо — eng yaxshi davo", "Ona tabiatni asrash — bizning burchimiz", "Qushlar bizning do'stimiz", "Hosil bayrami" kabi mavzularda turli xil bahslar, davra suhbatlari, bayramlar tashkil etish orqali shakllantirsak, ajdodlar oldidagi qarzimizni uzgan, tabiatning gazak ola boshlagan yarasiga baholi qudrat malham qo'rgan bo'lar edik.

Gulzoda AVALOVA,
Pastdarg'om tumanidagi
28-IDUMning biologiya fani
o'qituvchisi

Ilohiy mutanosiblik

PHI soni koinotdagi eng chiroyli son sifatida tan olingan. U bir butun mingdan olti yuz o'n sakkizga (1,618) teng. Ushbu son Fibonachchi ketma-ketligidan olingan. Bu ketma-ketlik: {1, 1, 2, 3, 5, 8, 13, 21, 34, ...}. Mazkur matematik progressiyada ikkita qo'shni sonlarning yig'indisi keyingi songa teng bo'ladi. Bundan tashqari, uchinchi sondan keyingi ikkita yonma-yon sonning bo'linmasi 1,618, ya'ni PHI soniga yaqin.

Nabotot va hayvonot olami vakillari va hatto odamlar ham jismoniy mutanosibliklarga ega bo'lib, ular esa o'z navbatida taxminan PHI sonining birga nisbatan ildiziga teng. Tabiatning hamma yerida bu sonning borligi, barcha tirik mavjudotlar o'rtasida o'zaro aloqa mavjudligiga ishoradir. Qadimda olimlar bu sonni "ilohiy mutanosiblik" deb atashgan.

Istalgan ari uyasidagi urg'ochi arilar sonini erkak arilar soniga bo'lsangiz har doim bir xil natija chiqadi. Kungaboqar urug'lari soat miliga qarama-qarshi, spiralsimon joylashgan. Har bir spiral diametringi keyingi spiral diametriga nisbati, makkajo'xori so'tasining spiralsimon o'ralgan barglari, o'simliklar bandida barglarning joylashishi, hashoratlarning tanalarining bo'g'imsimon qismlari, bularning bari tuzilishiga ko'ra "ilohiy mutanosiblik" qonuniga bo'ysunadi.

Inson tanasi tuzilishini hech kim

Leonardo da Vinchidek yaxshi tu shunmagan. U hatto jasadlarni yorib ko'rib, skelet suyaklari mutanosibligini o'rgangan. Aynan da Vinchi birinchi bo'lib inson tanasi "qurilish bloklari"dan tashkil topganligi va ular o'rtasidagi nisbat PHI ga teng ekanligini isbotlagan. Yelkadan barmoqlar uchigacha o'lchab, keyin uni tirsak barmoqlari uchigacha bo'lgan masofaga bo'linsa, yana PHI. Sondan tizzagacha bo'lgan qismni tizagan polga qadar bo'lgan masofaga bo'lsak — PHI. Qo'l barmoqlari, oyoq barmoqlari suyaklari takror va takror — PHI. Uni yana me'morchilikda, yunonlarning Parfenonida, Misr ehromlari va hattoki BMning Nyu-Yorkdagi binosida ham uchratish mumkin.

Shunday qilib, har birimiz "ilohiy mutanosiblik"ning tirik va yorqin misolimiz.

Nargiza RO'ZMETOVA,
Shovot tumanidagi
23-maktab o'qituvchisi

Hurmatli Rohila MELIQULOVA!

Sizni tug'ilgan kuningiz bilan chin dildan samimiy tabriklaymiz. Siz Zomin tumanidagi 9-umumta'lim maktabida o'ttiz besh yildan buyon boshlang'ich sinfga dars berib kelmoqdasiz. Pedagoglik faoliyatingizdagi mahorat va tajribangizni yosh avlodni davrimizning munosib o'g'il-qizlari qilib tarbiyalashga safarbar etib kelmoqdasiz. Sizga uzoq umr, sihat-salomatlik, o'qituvchilik faoliyatingizga muvaffaqiyatlar tilaymiz.



Zomin tumanidagi
9-umumta'lim maktabi jamoasi
va shogirdlaringiz

Yodgorov Sharofiddin Ismatullayevichning 04.00.04 — Gidroteologiya va muhandislik geologiyasi ixtisosligi bo'yicha "Muhandis-geologik sharoit xususiyatlarini hisobga olgan holda Buxoro shahar hududining seysmik riskini baholash" mavzusidagi (geologiya-mineralogiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Mineral resurslar instituti, Geologiya va geofizika instituti, Gidroteologiya va injenerlik geologiyasi instituti, Seysmologiya instituti, O'zbekiston Milliy universiteti va Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.GM.40.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 20-fevral kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100060, Toshkent shahri, T.Shevchenko ko'chasi, 11-"A" uy.
Tel/faks: (71) 256-13-49, 140-08-12; e-mail: info@gpniimr.uz

Choriyev Abdumumin Xudayqulovichning 03.00.09 — Umumiy genetika ixtisosligi bo'yicha "G'o'zada xazmo-kleystogam gul belgilarining irsiylanishi va xo'jalik ko'rsatkichlari bilan bog'liqligi" mavzusidagi (biologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti, O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.29.08.2017.V.53.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 26-fevral kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111226, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Yuqori-yuz.
Tel/faks: (71) 264-23-90, 264-23-90; e-mail: igebr_anruz@mail.ru

Muxamadiyev Abduqodir Nuraliyevichning 02.00.04 — Fizik kimyo ixtisosligi bo'yicha "Muvozanatdagi faza xromatografiyasining fizik-kimyoviy asoslari" mavzusidagi (kimyo fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Ph.D.03/30.12.2019.K.02.05 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 18-fevral kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy.
Tel/faks: (66) 239-11-40, 239-12-47; e-mail: devonxona@samdu.uz

Masharipova Mamlakat Satiboldiyevnaning 14.00.36 — Allergologiya va immunologiya (tibbiyot fanlari) ixtisosligi bo'yicha "Bolalarda surunkali bronxit rivojlanishining immunogenetik xaf omillari" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zR FA Immunologiya va inson genetikasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.Tib.50.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 20-fevral kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100060, Toshkent shahri, Yahyo G'ulomov ko'chasi, 70-uy.
Tel/faks: (71) 233-08-55, 233-92-97; e-mail: immunologiya@qip.ru

Daliyev Shaxrux Xojakbarovichning 01.04.10 — Yarimo'tkazgichlar fizikasi ixtisosligi bo'yicha "Qiyin eruvchi elementlar bilan legirlangan kremniy va kremniyli strukturalarda nuqsanlar hosil bo'lish jarayonlari" mavzusidagi (fizika-matematika fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi O'zR FA Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.FM.65.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 21-fevral kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do'rmon yo'li ko'chasi, 33-uy.
Tel/faks: (71) 262-32-54; e-mail: info@iplt.uz

Ishchanov Javlonbek Kurbanbayevichning 06.01.02 — Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik ixtisosligi bo'yicha "Xorazm viloyati yerlari meliorativ holatiga tabiiy-iqlim sharoitlar o'zgarishining ta'siri, tahlili va bashorati" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.T.10.02 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 21-fevral kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100000, Toshkent shahri, Qori Niyoziy ko'chasi, 39-uy.
Tel/faks: (71) 237-22-09, 237-38-79; e-mail: admin@tiame.uz

Abduraxmonov Sarvar Narzullayevichning 11.00.06 — Geodeziya. Kartografiya ixtisosligi bo'yicha "Geoaxborot texnologiyalari va kartografik metodlar asosida mintaqaviy demografik jarayonlarni tadqiq qilish (O'zbekiston Respublikasi janubiy mintaqasi misolida)" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.T.10.02 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2020-yil 21-fevral kuni soat 15:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100000, Toshkent shahri, Qori Niyoziy ko'chasi, 39-uy.
Tel/faks: (71) 237-22-09, 237-38-79; e-mail: admin@tiame.uz

Ibragimov Shavkat Narzikulovichning 14.00.14 — Onkologiya va 14.00.19 — Klinik radiologiya ixtisosliklari bo'yicha "Eksperimental o'smalarni davolashda yangi mahalliy o'smaga qarshi preparatlar kolxaminol va kolxametinlarning radiosezuvchanlik ta'siri" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019.Tib.77.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 20-fevral kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Forobiy ko'chasi, 383-uy.
Tel/faks: (71) 227-13-27, 246-15-96; e-mail: info@sancercenter.uz

Yarashov Jo'rabek To'rayevichning 13.00.01 — Pedagogika nazariyasi. Pedagogika ta'limotlar tarixi ixtisosliklari bo'yicha "Musiqqa ta'limi yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash samaradorligini oshirishda aksiologik yondashuv (Buxoro musiqa merosi misolida)" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Ph.D.03/30.01.2020.Ped.02.06 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 28-fevral kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy.
Tel/faks: (66) 239-12-29, 239-17-14; e-mail: samdu_ped_kengash@umail.uz

Sayitov Sardor Savriddinovichning 04.00.02 — Qattiq foydali qazilma konlarining geologiyasi, ularni qidirish va razvedka qilish. Metallogeniya va geokimyo ixtisosligi bo'yicha "Bukantog' va Ovminzatog'dagi tarkibida uglerod bo'lgan qatlamlarning oltin va u bilan birga uchrovchi ma'danlashuvga istiqboli" mavzusidagi (geologiya-mineralogiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Mineral resurslar instituti, Geologiya va geofizika instituti, Gidroteologiya va injenerlik geologiyasi instituti, Seysmologiya instituti, O'zbekiston Milliy universiteti va Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.GM.40.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 20-fevral kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100060, Toshkent shahri, T.Shevchenko ko'chasi, 11-"A" uy.
Tel/faks: (71) 256-13-49, 140-08-12; e-mail: info@gpniimr.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti jamoasi o'quv-metodik bo'lim boshlig'i Mirza Xoliqovga ukasi
Norqul XOLIQOVNING
vafoti munosabati bilan ta'ziya bildiradi.



Barcha abituriyentlar, ota-onalar va o'qituvchilar diqqatiga!

“Marifat” gazetasi sahifalarida:
abituriyentlar uchun

DTM testlari darajasidagi
sinov testlari
o'qituvchilar uchun

- PISA
- PIRLS
- TIMSS

testlaridan namunalar e'lon qilina boshlandi.



Vaqtan yutqazmang. Nashrimizga tezroq obuna bo'ling! Gazetaning o'z vaqtida yetib borishini istasangiz, “O'zbekiston pochta” AJ va “Matbuot tarqatuvchi” AKning hududiy filiallariga murojaat qiling!

“Marifat” gazetasiga 2020-yil uchun obuna davom etadi.

Bundan tashqari, o'tgan yilgi kirish imtihonidagi murakkab testlar yechimiga doir

- SHARHLAR:
- IZOHLAR:
- O'QUV LUG'ATLARI muntazam berib boriladi. Shu bilan birga, o'qituvchi-murabbiylar uchun
- ATTESTATSIYA TESTLARIdan namunalar ham e'lon qilinadi.



Yakka tartibdagi obunachilar uchun nashr indeksi 149
Korxonalar va tashkilotlar uchun nashr indeksi 150

Manzil: 100000, Toshkent sh., Matbuotchilar 32-uy.
Tel.: (71) 233-50-55, faks: (71)233-99-15.

Bizni internetda ham kuzating!

www.marifat.uz [/marifat.uz](https://www.facebook.com/marifat.uz) [@marifatziyo](https://www.instagram.com/marifatziyo)

Nashrimizga obuna bo'lishni istaganlar uchun

“O'zbekiston pochta” AJ va “Matbuot tarqatuvchi” AKning hududiy filiallari telefon raqamlari havola etilmoqda.

“O'zbekiston pochta” AJning korxonalari telefon raqamlari

“Matbuot tarqatuvchi” AKning korxonalari telefon raqamlari

№	Hududiy filiallar	Telefon	№	Hududiy filiallar	Telefon
1	Toshkent shahri filiali	(71) 233-73-56	8	Xorazm filiali	(62) 228-51-71
2	Andijon filiali	(74) 223-26-24	9	Surxondaryo filiali	(95) 501-01-95
3	Qoraqalpog'iston filiali	(61) 222-14-43	10	Toshkent filiali	(71) 268-22-56
4	Qashqadaryo filiali	(75) 221-04-62	11	Samarqand filiali	(66) 229-49-27 229-51-16
5	Jizzax filiali	(90) 538-02-69	12	Farg'ona filiali	(73) 244-47-79
6	Namangan filiali	(69) 233-03-67	13	Sirdaryo filiali	(95) 510-01-94
7	Buxoro filiali	(65) 223-48-93	14	Navoiy filiali	(91) 335-66-62

№	Hududiy filiallar	Telefon	№	Hududiy filiallar	Telefon
1	Toshkent shahri	(71) 233-67-98	8	Xorazm viloyati	(62) 227-48-55
2	Andijon viloyati	(74) 223-82-13	9	Surxondaryo viloyati	(76) 221-91-18
3	Qoraqalpog'iston Respublikasi	(61) 222-88-63	10	Toshkent viloyati	(71) 199-76-66
4	Qashqadaryo viloyati	(75) 225-40-27	11	Samarqand viloyati	(66) 234-22-53
5	Jizzax viloyati	(72) 222-40-01	12	Farg'ona viloyati	(73) 244-50-77
6	Namangan viloyati	(69) 239-10-88	13	Sirdaryo viloyati	(67) 225-11-22 225-11-44
7	Buxoro viloyati	(65) 221-56-90	14	Navoiy viloyati	(36) 223-26-86

Yakka tartibdagi obunachilar uchun nashr indeksi: 149
Korxonalar va tashkilotlar uchun nashr indeksi: 150

Manzil: 100000, Toshkent sh., Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Tel.: (71) 233-50-55, faks: 233-99-15;

Bizni internetda ham kuzating! www.marifat.uz e-mail: info@marifat.uz [/marifat.uz](https://www.facebook.com/marifat.uz) [@marifatziyo](https://www.instagram.com/marifatziyo)

Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi,
O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,
O'zbekiston Ta'lim, fan va madaniyat xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan. Indeks: 149, 150. G-229. Tiraji 10286. Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan, qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

qabulxonalar — (71) 233-50-55;
kotihiyat — (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo'limi —
(71) 233-42-92 (faks), (71) 233-56-00.



“Marifat” dan materiallarni ko'chirib bosish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va mualifga qaytarilmaydi.

MANZILIMIZ:

100083, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.
Navbatchi muharrir: Niginabonu Shukurova.
Navbatchi: Faxriddin Rahimov.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.
Korxonalar manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

O'zA yakuni — 22.00 Topshirildi — 22.00

1 2 3 4 5 6